RESEARCH AND PUBLICATIONS

KONFERENSIYA 2026

- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar
- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Iqtisodiyot
- San’at va madaniyat
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari










+998 97 277 78 01
www.reandpub.uz
info@reandpub.uz

KONFERENSIYA
2026 – MART

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 1-sonli online konferensiyasi.

«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA’LIM MUASSASASI

«TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MUAMMO VA YECHIMLAR» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY 1 -SONLI ONLINE KONFERENSIYASI

3-SON , 1-JILD MART– 2026 1-QISM

WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ

KONFERENSIYA
2026 – MART

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Maksudova Firuza Xurshidovna
Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

Shamshiyeva Hulkar
Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Baratova Maxbuba Mubinjanovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna
Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qito'vchisi

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Alimjon Tojiev Mo'ydinovich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qiituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Erkaboy Yu. Derdibaev
Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasi professori

Saidova Markhabo Xabibullo kizi
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

SUN'IY INTELLEKT VA FINTECH ASOSIDA BUDJET TASHKILOTLARI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimova Iroda Rashid kizi-Toshkent Davlat Iqtisodiyt Universiteti Audit kafedrasi docenti, gafuribragimov@mail.ru
Samatova Shoxida Umar qizi Bank-Moliya Akademiyasi DMNA-25-01-guruh talabasi samatovashokhida2@gmail.com Tel: +99895092-08-28

Kalit so'zlar: Fiskal strategiya, PEFA reytingi, raqamli audit, Sun'iy intellekt, FinTech, Fraud Detection, masofaviy audit, budjet intizomi, autsorsing, COSO standarti.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tezisda O'zbekistonning 2026–2028-yillarga mo'ljallangan fiskal strategiyasi doirasida davlat xarajatlarini nazorat qilishda raqamli auditning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, PEFA reytingidagi ijobiy dinamika va sohani tartibga soluvchi 10 dan ortiq normativ hujjatlar tahlili asosida, ichki audit tizimiga Sun'iy intellekt (AI) va FinTech yechimlarini integratsiya qilish bo'yicha takliflar berilgan. Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya tajribasi misolida "Raqamli audit"ning istiqbollari yoritilgan.

Title: ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND FINTECH SOLUTIONS IN IMPROVING INTERNAL AUDIT OF BUDGET ORGANIZATIONS:

Ibragimova Iroda Rashid kizi-Toshkent Davlat Iqtisodiyt Universiteti Audit kafedrasi docenti, gafuribragimov@mail.ru
Samatova Shoxida Umar qizi Bank-Moliya Akademiyasi DMNA-25-01 guruh talabasi samatovashokhida2@gmail.com Tel: +99895092-08-28

Abstract: This research analyzes the issues of digitalizing the audit system in budget organizations within the framework of Uzbekistan's Fiscal Strategy for 2026–2028. Based on the positive dynamics of the PEFA rating (B+) and the analysis of more than 10 regulatory documents governing the sector, practical proposals are provided for the integration of Artificial Intelligence (AI) and FinTech solutions into the internal audit system. Drawing on the experience of the UK National Audit Office (NAO), the European Court of Auditors (ECA), and the National Research Foundation of Korea (NRF), the paper highlights the prospects of a "Digital Audit" model. The study suggests implementing "Fraud Detection" algorithms and "Smart-Monitoring" platforms to enhance budget discipline and increase expenditure efficiency by 25-30% by 2028.

Keywords: Fiscal strategy, PEFA rating, digital audit, Artificial Intelligence, FinTech, Fraud Detection, remote audit, budget discipline, outsourcing, COSO framework.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining 2025–2030-yillarga mo'ljallangan strategik maqsadlarida davlat moliyasini boshqarishda shaffoflikni ta'minlash va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa etib belgilangan.[1,2.4-band]. Ayniqsa, davlat

budjeti daromadlarining 2026-yilda 372,4 trln so‘mdan 2028-yilda 484,7 trln so‘mga yetishi kutilayotgan bir sharoitda, ushbu mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish mexanizmlari ham transformatsiya qilinishini talab etadi [2,58]. Hozirgi kunda an’anaviy audit usullari katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda va yashirin korrupsion risklarni aniqlashda yetarlicha tezkor emas. Shu sababli, O‘zbekistonning yangi Fiskal strategiyasi (2026–2028) doirasida davlat xarajatlari samaradorligini oshirish uchun Sun’iy intellekt (AI) va FinTech yechimlariga asoslangan "Aqlli audit" modeliga o‘tish dolzarb ilmiy va amaliy masaladir.

Xo’sh, davlat sektorida ichki auditning bugungi holati va PEFA ko‘rsatkichlarini ko’rib chiqamiz. Oxirgi yillarda O‘zbekistonda ichki audit xizmatlarining huquqiy va institutsional asoslari sezilarli darajada mustahkamlandi. Bugungi kunga qadar sohaga oid 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.[3] Ushbu hujjatlar asosida:

- Ichki auditning milliy standartlari tasdiqlandi;
- Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki audit xizmatlari tashkil etildi;
- 800 ga yaqin mutaxassis milliy sertifikatga ega bo‘ldi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2024-yilda PEFA (Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik) mezonlari bo‘yicha o‘tkazilgan baholashda O‘zbekistonning “ichki audit” komponenti B+ (yaxshi) darajasida baholandi. Bu natija tizimning xalqaro standartlarga yaqinlashganini ko‘rsatadi, biroq "A" darajasiga erishish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish zarur. [5]

Qo’shimcha qilib aytib o’tganda 2026–2028-yillarda Fiskal strategiya va xarajatlar tahlili**.** O‘zbekistonning 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan fiskal strategiyasida ijtimoiy yo‘naltirilgan xarajatlar ustuvorligi saqlab qolinadi.[2] Prognozlarga ko‘ra:

- 2026-yilda ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari 171,4 trln so‘mni (jami xarajatlarning 41,9%) tashkil etadi.
- Ijtimoiy soha bo‘yicha ish haqi xarajatlarining o‘zi 106,6 trln so‘mni tashkil qiladi.
- Tovar va xizmatlar xaridi (oziq-ovqat, dori-darmon) uchun 11,3 trln so‘m yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

1-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha yoyilmasi, trln so‘m

		ijro	ijro	parametr	prognoz	mo‘ljal	
		2023	2024	2025	2026	2027	2028
	Jami xarajatlar	**281,1**	**310,9**	**344,8**	**408,9**	**468,3**	**532,9**
	shundan:						
1	**Ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari**	**114,4**	**131,2**	**154,3**	**171,4**	**193**	**215,9**
2	**Stipendiyalar**	**1,5**	**1,7**	**2**	**2,3**	**2,5**	**2,8**
3	**Markazlashgan investitsiya xarajatlari**	**17,4**	**19,7**	**16,2**	**19**	**22,1**	**25,1**
4	**Tovar va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar**	**24,5**	**25,3**	**26,4**	**29**	**31,9**	**35,1**
4.1	Xizmat safarlari xarajatlari	0,2	0,3	0,4	0,4	0,4	0,4
4.2	Kommunal to‘lovlar, shundan:	8,4	8,7	10,3	10,6	10,9	11,7
	elektroenergiya	7,4	7,4	8,4	8,4	8,6	9,2
	tabiiy gaz	0,4	0,4	0,6	0,7	0,7	0,8
	issiq suv va issiqlik energiyasi	0,3	0,5	0,7	0,9	1	1,1
	sovuq suv va kanalizatsiya	0,3	0,3	0,5	0,4	0,5	0,5
	chiqindi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
4.3	Saqlash va joriy ta’mirlash	2,1	1,2	1,7	1,7	1,7	1,7
4.4	Tovar-moddiy zaxiralariga xarajatlar, shu jumladan:	8,5	9,7	13,5	14,8	16,3	17,9
	oziq-ovqat mahsulotlari	3,3	3,7	6,1	6,7	7,6	8,4
	dori-darmonlar va tibbiy vositalar	3,1	3,3	4,2	4,6	5,1	5,6
	yonilg‘i va YOMM	0,7	0,8	1,7	1,9	2	2,3
5	**Asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar**	**5,1**	**5,1**	**5,3**	**5,3**	**5,3**	**5,3**
	asosiy vositalarni sotib olish	4	4,2	3,8	3,8	3,8	3,8
6	**Foiz to‘lovlari**	**8,2**	**14,5**	**21,1**	**25,6**	**33,1**	**39,5**
7	**Subsidiyalar**	**29,4**	**25,9**	**28,3**	**28,8**	**29**	**30,2**
8	**DMJ va boshqa jamg‘armalarga budjetdan ajratiladigan transfertlar**	**30,7**	**34,8**	**39,5**	**38,8**	**43,4**	**45,7**
9	**Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to‘lovlar**	**19,2**	**15,5**	**17,3**	**16,5**	**20,6**	**22,8**

Bunday ulkan mablag‘larni "inson omili" aralashuvi bilan nazorat qilish xatoliklarga va korrupsion risklarga yo‘l ochishi mumkin. Shu sababli, strategiya doirasida "Fraud Detection" (firibgarlikni aniqlash) algoritmlarini va real vaqt rejimida ishlovchi Smart-Monitoring platformalarini joriy etish taklif etiladi.

Xalqaro tajriba misolida raqamli audit transformatsiyasini ko’rib chiqadigan bo’lsak. Xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar allaqachon ma’lumotlarni tahlil qilishda Katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyasiga o‘tgan:

- Buyuk Britaniya (NAO): Hukumat barcha budjet tashkilotlarining moliyaviy ma’lumotlarini yagona bulutli omborga (Cloud data warehouse) integratsiya qilgan. Bu auditorlarga tanlanma tekshiruv o‘rniga, 100% tranzaksiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. [6]

- Yevropa Auditorlik Sudi (ECA): "Topic modeling" usulini qo‘llab, minglab moliyaviy hujjatlar ichidan shubhali nuqtalarni soniyalar ichida aniqlaydi. [7]
- Janubiy Koreya (NRF): Audit jarayonini raqamlashtirish bo‘yicha maxsus strategiya ishlab chiqqan bo‘lib, unda AI auditorga "shaxsiy yordamchi" sifatida tavsiyalar beradi.[4]

O‘zbekiston davlat moliyasi tizimini isloh qilishni 2026–2028-yillarda islohotlarning yangi bosqichini navbatdagi rejalarida quyidagicha belgilagan:

- Davlat ichki nazorati va ichki audit to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish orqali barcha normalarni tizimlashtirish.
- "Ichki audit xizmati faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi" doirasida audit jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish.
- Audit faoliyati mavjud bo‘lmagan kichik tashkilotlarda autsorsing tizimini yo‘lga qo‘yish.
- Ichki auditorlarni sertifikatlash tizimini xalqaro CIA (Certified Internal Auditor) standartlari bilan uyg‘unlashtirish.[2,24-30]

Izlanishlar natijasida O‘zbekiston budjet tizimi va fiskal strategiyasining 2026–2028-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari tahlili asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari sura olaman:

1. AI-Audit tizimini joriy etish: Ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar (171,4 trln so‘m) auditida "inson xatosi"ni nolga tushirish uchun shubhali tranzaksiyalarni avtomatik aniqlaydigan AI algoritmlarini ishga tushirish.
2. FinTech monitoring platformasi: Dori-darmon va oziq-ovqat uchun ajratilgan 11,3 trln so‘mning maqsadli sarflanishini ta’minlashda blokcheyn va smart-kontrakt texnologiyalarini qo‘llash.
3. Bulutli ombor yaratish: Buyuk Britaniya tajribasi asosida barcha budjet tashkilotlarining xarajatlar bazasini yagona bulutli markazga jamlash. Bu auditorlik tekshiruvi muddatini 50-60 foizga qisqartiradi.
4. Digital Audit Lab tashkil etish: Auditorlarni zamonaviy FinTech vositalari bilan ishlashga o‘rgatuvchi doimiy laboratoriya va o‘quv markazini ochish.

Ushbu chora-tadbirlar 2028-yilga borib budjet xarajatlari samaradorligini 25-30 foizga oshirishga va davlat moliyasida shaffoflikni xalqaro darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi degan fikrdaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-188-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-2027 yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiya. – Toshkent, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-avgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 480-sonli Qarori.
4. NRF ISSUE REPORT 2025-3: "Administrative Audit Digitalization Strategies based on AI Governance." National Research Foundation of Korea, 2025.–8-12p.
5. PEFA Assessment Report: Public Financial Management Performance of Uzbekistan. World Bank and PEFA Secretariat, 2024.

6. National Audit Office (NAO) Report: "Artificial Intelligence and Big Data in the Audit Process." United Kingdom, 2024.

7. European Court of Auditors (ECA). "The use of Data and Technology in Audit: Annual Activity Report". – Luxembourg, 2023. – 34-38 p.

8. Ибрагимов А.К. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида банкларда ички аудитнинг ташкилий асослари. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, -348б.

9. Ибрагимов А.К., Ибрагимова И.Р. Особенности перехода на международные стандарты финансовой отчётности в коммерческих банках Республики Узбекистана.// Учёт, анализ и аудит: состояние и перспективы развития: материалы VII Международной научно-практической конференции, г. Луганск, 08 декабря 2023 г. – Луганск: ИП Орехов Д.А., 2024. – 415 с

ОСОБЕННОСТИ ЗАИКАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Жуманазарова Азизиахон

Ташкентский Международный Университет Кимё

Ключевые слова: заикание, дошкольники, речевой аппарат. Проблема заикания у детей дошкольного возраста по сей день остается одной из самых актуальных и дискуссионных в современной логопедии, психологии и неврологии. Данный феномен представляет собой нарушение темпо-ритмической организации речи, обусловленное судорожным состоянием мышц речевого аппарата. Дошкольный период является критическим этапом в формировании речевой функции, так как именно в это время происходит переход от ситуативной речи к контекстной, усложняется синтаксическая структура высказываний и возрастает когнитивная нагрузка на механизмы программирования речи. Понимание природы заикания требует глубокого анализа взглядов ведущих исследователей, каждый из которых акцентировал внимание на различных аспектах этого нарушения. Фундаментальный вклад в изучение речевых патологий внесла Р. Е. Левина, которая рассматривала заикание прежде всего как «системное нарушение, возникающее в момент активного формирования фразовой речи». Согласно её концепции, «основным детерминирующим фактором выступает несоответствие между быстро развивающимися коммуникативными потребностями ребенка и его ограниченными языковыми возможностями». Она подчеркивала, что «заикание часто появляется в периоды интенсивного обогащения словаря, когда механизмы речевого планирования не справляются с объемом передаваемой информации». В рамках данного подхода заикание интерпретируется как следствие неустойчивости всей речевой системы в сензитивный период развития [5]. Н. А. Чевелева предложила рассматривать заикание через призму трудностей планирования речевого акта. Она утверждала, что «судорожные запинки возникают в те моменты, когда ребенок сталкивается с необходимостью спонтанного построения сложного высказывания в 1 условиях меняющейся коммуникативной ситуации». Автор акцентировала внимание на том, что для дошкольников с заиканием характерна выраженная зависимость плавности речи от степени её подготовленности и формы общения. По мнению Чевелевой, «ключевым звеном в коррекции должно стать развитие навыков последовательного развертывания мысли, поскольку именно дефицит внутреннего программирования провоцирует речевой сбой» [6, с. 94]. В свою очередь Г. А. Волкова сосредоточила внимание на социально психологической и личностной стороне дефекта. Она указывала на то, что заикание у дошкольников невозможно рассматривать в отрыве от эмоционально-волевой сферы и особенностей игровой деятельности. Автор отмечала, что «у детей данной категории часто наблюдается повышенная тревожность, легкая возбудимость и специфические трудности в общении со сверстниками». Согласно её позиции, «речевая судорога является лишь

внешним проявлением глубокого дезадаптивного процесса, в котором личностная реакция ребенка на свой дефект начинает играть роль патологического фактора, замыкающего «порочный круг» заикания» [3, с. 135]. В работах Н. М. Асатиани заикание рассматривается как «следствие органической или функциональной недостаточности центральной нервной системы». Она указывала на высокую корреляцию между возникновением заикания и наличием в анамнезе ребенка факторов, ослабляющих нервную систему (перинатальные патологии или частые соматические заболевания). В данном контексте речевое нарушение выступает как локальное проявление общей невропатии, при которой стрессовые факторы или интеллектуальные перегрузки становятся триггерами, провоцирующими срыв высшей нервной деятельности [2, с. 26]. Интересную точку зрения высказывал В. М. Шкловский, который интегрировал биологические и социальные факторы, описывая заикание как психофизиологическую проблему. Он утверждал, что «в основе нарушения 2 лежит дискоординация в работе речедвигательных центров, которая обостряется под влиянием неблагоприятной микросоциальной среды». Шкловский обращал внимание на то, что для дошкольников характерна особая лабильность нервных процессов, из-за чего любые дефекты воспитания или избыточная стимуляция речевого развития могут привести к патологической фиксации судорожных реакций. Так, заикание трактуется им как результат нарушения динамического стереотипа речи [7, с. 188]. Если рассматривать проблему с позиции психолингвистики, уместно обратиться к трудам П. К. Анохина, который видит в заикании поломку механизмов обратной связи. Он полагает, что «ребенок с заиканием испытывает трудности в восприятии собственной речи, что приводит к ложной коррекции уже произносимых звуков». Это создает итерации и пролонгации, которые воспринимаются слушателем как заикание. В этом смысле дошкольный возраст является наиболее уязвимым, так как слуховой контроль за собственной речью еще окончательно не сформирован и легко поддается деструктивному влиянию внешних шумов или эмоционального возбуждения [1, с. 27]. Современные исследователи, опираясь на классические труды, всё чаще приходят к выводу о гетерогенности заикания. Считается, что у одних детей на первый план выступает моторная дискоординация, тогда как у других доминируют психогенные факторы. Несмотря на различия в подходах, большинство авторов сходятся в том, что дошкольный возраст — это период, когда заикание носит наиболее пластичный характер. Если на начальных этапах, как отмечала С. А. Миронова, заикание проявляется преимущественно в ситуациях высокого эмоционального напряжения, то при отсутствии адекватной помощи оно быстро перерастает в устойчивый патологический навык, сопровождающийся сопутствующими движениями и речевыми уловками [4]. у Таким образом, мы можем сделать вывод о том, что особенности заикания дошкольников обусловлены тесным переплетением 3 биологической предрасположенности, психологической лабильности и специфики

речевого онтогенеза. Комплексный характер нарушения требует такого же интегративного подхода к диагностике и коррекции, где учитываются особенности формирования языковых средств, состояние моторных функций и специфика эмоционального реагирования ребенка.

Литература

1. Анохин, П. К. Очерки по физиологии функциональных систем / П. К. Анохин ; Академия медицинских наук СССР. — Москва : Медицина, 1975. — 448 с. 2. Асатиани, Н. М. Данные клинико-физиологического исследования детей дошкольного возраста, страдающих заиканием / Н. М. Асатиани // Дефектология. — 1978. — № 1. — С. 25–30. 3. Волкова, Г. А. Игровая деятельность в устранении заикания у дошкольников : книга для логопедов / Г. А. Волкова. — 2-е изд., доп. и перераб. — Санкт-Петербург : Детство–Пресс, 2003. — 240 с. 4. Методика исправления заикания С. А. Мироновой [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://multiurok.ru/files/mietodiki-ispravlieniia zaikaniia.html. — Дата доступа: 11.02.2026. 5. Рибцун, Ю. В. Проблема заикания у дошкольников в работах Р. Е. Левиной / Ю. В. Рибцун // Сборник Международной научно-практической конференции, посвященной памяти Р. Е. Левиной (3 марта 2008 г.). — Москва, 2008 [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://logoped.in.ua/палочка-выручалочка-как-работать-с де/спотыканки/проблема-заикания-у-дошкольников-в-ра/. — Дата доступа: 11.02.2026. 6. Чевелева, Н. А. Преодоление заикания у детей : пособие для логопедов и воспитателей логогрупп / Н. А. Чевелева. — Москва : А. Казаков : Гном и Д, 2001. — 123 с. 7. Шкловский, В. М. Заикание : учебник для вузов / В. М. Шкловский. — Москва : Издательство Юрайт, 2021. — 309 с. 4

ZAMONAVIY INTERAKTIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI OG'ZAKI VA YOZMA HISOBLASHGA O'RGATISH USULLARI

O.Ch.Kuziyev –Xalqaro innovatsion universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Sh.A.Namozova - Xalqaro innovatsion universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini og‘zaki va yozma hisoblash ko‘nikmalariga o‘rgatishda zamonaviy interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari yoritiladi. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda o‘yin metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, mustaqil ishlashi va hisoblash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются эффективные методы использования современных интерактивных педагогических технологий в обучении устной и письменной арифметике учащихся начальной школы. Применение инновационных подходов, информационно-коммуникационных технологий и игровых методов в образовательном процессе способствует развитию логического мышления, навыков самостоятельной работы и арифметических способностей учащихся.

Abstract. This article discusses effective methods for using modern interactive pedagogical technologies in teaching oral and written arithmetic skills to primary school students. The use of innovative approaches, information and communication technologies, and game methods in the educational process helps to develop students' logical thinking, independent work, and arithmetic skills.

Kalit so‘zlar: Interaktiv texnologiya, klister, konseptual xarita, refleksiya, axborot-kommunikatsiya, didaktik o‘yinlar,metodika, boshlang‘ich ta’lim, matematik tafakkur, arifmetik amal, ko‘nikma, malaka.

Ключевые слова: интерактивные технологии, клистер, концептуальная карта, рефлексия, информация и коммуникация, дидактические игры, методология, начальное образование, математическое мышление, арифметические операции, навык, компетенция.

Keywords: Interactive technology, clister, conceptual map, reflection, information and communication, didactic games, methodology, primary education, mathematical thinking, arithmetic operation, skill, competence.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda matematik tafakkurni shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Ayniqsa, og‘zaki va yozma hisoblash ko‘nikmalarini puxta egallash keyingi bosqichdagi matematik bilimlarning mustahkam poydevorini yaratadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiruvchi usullar majmuasidir. Interaktiv metodlar esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Hisoblash malakasi nafaqat hisoblashda matematik masalalar-misollarini yechishda balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham zarurdir.

Shuning uchun ham hozirgi globallashgan zamonda kelajak poydevorlari uchun matematika darslarida puxta, og‘zaki va yozma hisoblash metodikasini to‘g‘ri tashkil etish dolzarb pedagogik masalalardan biri va hisoblash malakalarini shakllantirishda nuqsonlarni kamaytirish borasida omma o‘rtasida ko‘plab mushohadalar, muzokaralar olib borilmoqda.

Ta’limning eng dastlabkisi maktabgacha ta’lim bo‘lsa, boshlang‘ich ta’limning ham inson kamolotida o‘z o‘ni va salohiyatiga ega.Chunki dastlabki matematik tushunchalar ushbu boshlang‘ich ta’limda shakllanadi va poydevor hisoblanadi.

Hisoblash turlarini asosan boshlang‘ich sinf matematika darslarida og‘zaki va yozma turlarini keng tushuntiriladi. Og‘zaki hisoblash – bu arifmetik amallarini yozuvsiz, belgisiz, vositalarsiz, aqliy va mantiqiy fikrlash orqali bajarish jarayonidir. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki hisoblash yo‘nalishlari haqida ham o‘rgatiladi:

- sonlarni qo‘shish va ayirishning qulay usullari.
- o‘rin almashtirish va guruhlash qonunlaridan foydalanish.
- jadval asosida ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajarishni o‘rgatish.
- o‘nlik va yuzliklarga ajratib hisoblashni og‘zaki hisoblashga o‘rgatishda quyidagi metodlardan foydalansak samaralidir.
- **Tushuntirish metodi** – o‘qituvchi masala-misollarni, amallarni bajarishni bosqichma-bosqich izohlaydi.
- **Savol-javob metodi** – o‘quvchilarning diqqatini, faolligini oshiradi.
- **Ko‘rgazmalilik** – son belgilari tushirilgani ko‘rsatma qo‘llanmalar, jadvallar va rasmli chizmalardan foydalanish. Bu og‘zaki hisoblashda foydali bo‘lib, xotira va diqqatni rivojlantiradi.

Matematik ta’lim jarayonida o‘quvchilarda og‘zaki hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari haqida ham fikr yuritamiz.

Og‘zaki hisoblash – tez fikrlash, xotira va diqqatni talab qiladigan jarayondir. Ta’lim jarayonida quyidagi interaktiv usullar samarali hisoblanadi:

1. “Aqliy hujum” metodi orqali: O‘qituvchi tezkor savollar beradi, o‘quvchilar esa qisqa vaqt ichida javob qaytaradi. Masalan: 45 + 30, 72 – 20, 6 × 4

Bu metod rifmetik amallarni bajarishda tezkorlik va mantiqiy bog‘lanishni anglashni rivojlantiradi.

2. Didaktik o‘yinlar orqali: “Zanjirli hisob”, “Kim tez?”, “Top va ayt” kabi o‘yin elementlari orqali o‘quvchilar raqamlar, sonlar bilan faol ishlaydi. O‘yin jarayoni raqobat muhitini yaratib, motivatsiyani, o‘ziga ishonchni oshiradi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali: Multimedia taqdimotlari, interaktiv testlar, onlayn platformalar orqali mashqlar bajarish o‘quvchilarning

qiziqishini oshiradi. Masalan, animatsion slaydlar yordamida misol va masalalarni vizual ko‘rinishda tushuntirish mumkin.

4. Klaster va konseptual xaritalar orqali: Sonlar o‘rtasidagi bog‘lanishni klaster usulida ko‘rsatish o‘quvchilarga arifmetik amallar mohiyatini anglashga yordam beradi.

Yozma hisoblash metodikasi – yozma hisoblash biroz murakkabroq bo‘lib, arifmetik amallarni ustun shaklida bajarishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchidan aniqlik va tartiblilik talab etiladi va bu muhim ahamiyatga ega.

Yozma tarzda hisoblash bosqichlari**:**

1. Avval mazmunini tushuntirish.
2. Ustun shaklida yozilishini o‘rgatish.
3. Bosqichma-bosqich bajarish algoritmini ko‘rsatish.
4. Olingan ma’lumotlarni mustaqil mashqlar orqali mustahkamlash zarurdir.

Masalan: ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirishda razryadlar bo‘yicha ishlash o‘rgatiladi. Ko‘paytirish va bo‘lish amallarida esa matematik aniqlik va ixchamlik yondashuvi muhimdir. Yozma hisoblash metodikasida quyidagilar muhimdir.a) Aniqlik va ixchamlik; b)Xatolar ustida ishlash; v)Nazorat va o‘z-o‘zini tekshirish; g) Differensial yondashuv;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’lim jarayonida yozma hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirishni quyidagi bir-biridan farqli usullariga to‘xtalib o‘tamiz. Yozma hisoblash aniqlik, tartib va izchillikni talab qiladi. Tavsiya etayotgan quyidagi metodlar samarali natija berishiga ishonch hosil qilamiz.

1. “Bosqichma-bosqich” texnologiyasi – bu har bir amal alohida tushuntirilishi, keyin umumlashtirilishi bilan farqlanadi. Masalan, ustun shaklida qo‘shish va ayirish algoritmi pog‘onama-pog‘ona o‘rgatiladi.

2. Hamkorlikda o‘qitish – bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, murakkab misol va masalalarni birgalikda jamoa bo‘lib hisoblaydilar yoki yechadi. Bu usul o‘zaro yordam va mas’uliyatni hissini oshiradi.

3. Muammoli vaziyat yaratish orqali tafakkurni rivojlantirish.

Masalan: “Agar do‘konda 125 ta daftar bo‘lsa va 48 tasi sotilgan bo‘lsa, nechta daftarqoldi?”O‘quvchilar masala shartini to‘liq tahlil qiladilar, yozma hisoblash orqali masalaning talabiga javob topadi. Yechilish tizimini izlaydilar, arifmetik amalni tanlab fikrlaydilar.

4. Refleksiya va tahlil qismida -o‘quv mashg‘ulotining yakunida o‘quvchilar o‘zlari bajargan arifmetik amallarini natijalarini tekshiradi, xatolari ustida ishlaydi. Bu mustaqil ishlash , o‘z-o‘zinini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi, mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Og‘zaki va yozma hisoblash bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlardir. Avval og‘zaki hisoblash orqali amal mazmuni tushuntiriladi, so‘ng yozma shaklga o‘tiladi. Og‘zaki hisoblash tezkorlikni, yozma hisoblash esa aniqlikni ta’minlaydi. Shuning uchun ham dars jarayonida har ikkala turdagi hisoblashni uyg‘unlashtirish lozim. Boshlang‘ich sinflarda matematika kursi mavzularini interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilishi quyidagi

afzalliklarga ega deb aytish mumkin. Bunda o‘quvchilarning faolligi sezilarli ravishda oshadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi, hisoblash malakalari tezligi va aniqligi ortadi, dars jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etiladi, individual yondashuv imkoniyati kengayadi va hakozolar. Xulosa o‘rnida keltirish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini og‘zaki va yozma hisoblashga o‘rgatishda zamonaviy interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘yin metodlari, axborot texnologiyalari, muammoli vaziyatlar va hamkorlikda o‘qitish usullari o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantiradi. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonida innovatsion va interaktiv metodlarni tizimli ravishda qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. Kuziev O. MAIN RECOMMENDATIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS OF INFORMATION MODELING IN ENGINEERS //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 591-595.
5. Kuziyev O. C. MODEL OF DEVELOPMENT OF INFORMATION-MODELING SKILLS IN FUTURE ENGINEERS //Academia Repository. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 44-49.
6. Кузиев О. Ч. Психолого-педагогические основы профессионально-педагогической направленности обучения специальным дисциплинам в республике Узбекистан //Мир образования-образование в мире. – 2012. – №. 3. – С. 66-70.
7. Chuliyevich K. O. Ways of Implementation in the Future of the Formation of Information and Modeling Skills in Students of the Technical Direction //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 11. – C. 22-26.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
9. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
10. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
11. Bikboyeva N. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
12. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018.
13. Klarin M.V. Инновационные модели обучения. – Москва: Наука, 2016.

KOMPANIYA FAOLIYATINING MOLIYAVIY TAHLILI USULLARI VA MODELLARI

Muxammadova Shahnoza Akramovna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
E-mail: ***mukhammadovashakhnoza@gmail.com***

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kompaniyalar faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish korxona boshqaruvining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy tahlil korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy tahlil natijalari investorlar, kreditorlar va menejerlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi(Brigham and Houston, 2021).

Tadqiqot jarayonida moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi kompaniya faoliyatining moliyaviy holatini baholashda qo‘llaniladigan asosiy moliyaviy tahlil usullari va modellarning ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kompaniya moliyaviy holatini tahlil qilish usullarining nazariy asoslarini o‘rganish;
- moliyaviy koeffitsiyentlar tahlilining ahamiyatini aniqlash;
- DuPont modeli, CVP tahlili hamda EVA modelining moliyaviy tahlildagi o‘rnini baholash.

Asosiy qism

Kompaniya moliyaviy holatini baholashda keng qo‘llaniladigan usullardan biri moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili hisoblanadi. Ushbu usul orqali kompaniyaning likvidligi, moliyaviy barqarorligi, rentabelligi hamda faoliyat samaradorligi baholanadi. Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE) va sof foyda marjasi kabi ko‘rsatkichlar kompaniya faoliyatining natijadorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi (Ross et al., 2019).

Moliyaviy tahlil jarayonida gorizontal va vertikal tahlil usullari ham muhim o‘rin tutadi. Gorizontal tahlil moliyaviy ko‘rsatkichlarning vaqt davomida o‘zgarish dinamikasini aniqlash imkonini beradi, vertikal tahlil esa moliyaviy hisobot elementlarining umumiy ko‘rsatkichdagi ulushini baholashga yordam beradi.

Kompaniya faoliyatining moliyaviy natijalarini chuqurroq tahlil qilishda DuPont modeli keng qo‘llaniladi. Ushbu model kapital rentabelligini bir nechta omillarga ajratgan holda tahlil qilish imkonini beradi. DuPont modeli orqali sof foyda marjasi, aktivlar aylanishi hamda moliyaviy leveraj ko‘rsatkichlarining kompaniya rentabelligiga ta’siri aniqlanadi (Higgins et al., 2022).

Shuningdek, kompaniya faoliyatini tahlil qilishda CVP (Cost–Volume–Profit) tahlili ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda zararsizlik nuqtasini hisoblash imkonini beradi. Bu esa korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy moliyaviy tahlil amaliyotida EVA (Economic Value Added) modeli ham keng qo‘llaniladi. Ushbu model kompaniya faoliyati natijasida yaratilgan iqtisodiy qiymatni baholash imkonini beradi. EVA ko‘rsatkichi kompaniya foydasi kapital qiymatidan yuqori yoki past ekanligini aniqlash orqali korxona faoliyatining haqiqiy iqtisodiy natijadorligini ko‘rsatadi (Damodaran, 2014).

Moliyaviy tahlil usullaridan kompleks foydalanish kompaniya faoliyatini yanada chuqur va tizimli baholash imkonini beradi. Turli moliyaviy tahlil usullari korxona faoliyatining alohida jihatlarini yoritadi. Xususan, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili kompaniyaning umumiy moliyaviy barqarorligini aniqlashga xizmat qiladi. DuPont modeli esa rentabellik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini beradi. CVP tahlili ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar hamda foyda o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish orqali korxona faoliyatining iqtisodiy natijalarini baholashga yordam beradi. Shuningdek, EVA modeli kompaniya tomonidan yaratilgan iqtisodiy qiymatni aniqlash orqali boshqaruv samaradorligini baholash imkonini yaratadi. Ushbu tahlil usullarini birgalikda qo‘llash kompaniya moliyaviy holatini yanada aniq va kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa

Kompaniya faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish korxona boshqaruvining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, gorizontal va vertikal tahlil usullari, DuPont modeli, CVP tahlili hamda EVA modeli kompaniya moliyaviy holatini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur usullarni birgalikda qo‘llash korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar

moliyaviy tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar, DuPont modeli, CVP tahlili, EVA modeli, kompaniya moliyaviy holati

Foydalanilgan adabiyotlar

Brigham, E.F., Houston, J.F., 2021. Fundamentals of Financial Management. Cengage Learning.

Damodaran, A., 2014. Applied Corporate Finance. John Wiley & Sons.

Higgins, Koski, Mitton, 2022. Analysis for Financial Management ISE. McGraw-Hill Education Ltd, Analysis for Financial Management ISE.

Ross, S., Westerfield, R., Jordan, B., 2019. Fundamentals of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.

INNOVATSION TA'LIMDA MA'NAVIY TARBIYANING O'RNI.

Andijon davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Karimova Feruzaxon Zakirovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta’lim sharoitida ma’naviy tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning pedagogik jarayondagi funksional ahamiyati hamda shaxs kamolotini ta’minlashdagi integrativ roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar keng joriy etilayotgan bir paytda, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarning uzviyligi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada innovatsion ta’lim va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik ochib berilib, ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi shaxsning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyati va milliy identifikatsiyasini shakllantirishdagi strategik omil sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, ma’naviy tarbiya, aksiologik yondashuv, pedagogik integratsiya, kompetensiyaviy model, shaxs kamoloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, raqamli pedagogika, tarbiyaviy muhit.

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji hamda bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Innovatsion ta’lim modeli nafaqat yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, balki ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirish va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Biroq innovatsion o‘zgarishlar jarayonida ma’naviy-axloqiy asoslarning yetarli darajada ta’minlanmasligi ta’lim samaradorligining biryoqlama, texnokratik talqiniga olib kelishi mumkin. Shu bois innovatsion ta’lim va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi, fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, Ta’lim to‘g‘risidada ta’limning asosiy tamoyillari sifatida insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, shaxsning har tomonlama kamol topishi qayd etilgan. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yuqori malakali, ma’naviy yetuk kadrlar tayyorlash davlat siyosatining strategik yo‘nalishi sifatida asoslab berilgan. Bu normativ-huquqiy asoslar innovatsion ta’limni ma’naviy tarbiya bilan integratsiyalash zaruratini belgilaydi. Milliy pedagogik tafakkur tarixida ham ma’naviy tarbiya masalasi ustuvor o‘rin tutgan. Jumladan, Pedagogika asarida tarbiya “hayot-mamot masalasi” sifatida talqin qilinib, shaxs kamolotida axloqiy mezonlarning hal qiluvchi ahamiyati ta’kidlangan. Mazkur g‘oyalar bugungi innovatsion ta’lim konsepsiyasi bilan uyg‘unlashgan holda, zamonaviy pedagogik jarayonning aksiologik poydevorini tashkil etadi. Mazkur maqolaning maqsadi innovatsion ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini nazariy-metodologik jihatdan asoslash, ularning o‘zaro integratsiyasi mexanizmlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda

tizimli, aksiologik va germenevtik yondashuvlar asosida innovatsion pedagogik jarayonda ma’naviy komponentni samarali joriy etish yo‘llari tahlil qilinadi.Mazkur muammoning ilmiy o‘rganilishi ta’lim tizimida innovatsion yangilanishlar va ma’naviy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi hamda barkamol avlodni shakllantirish strategiyasining nazariy asoslarini boyitadi.

ASOSIY QISM

Innovatsion ta’lim va ma’naviy tarbiyaning nazariy-metodologik asoslari. Innovatsion ta’lim zamonaviy pedagogik tafakkurda yangicha yondashuvlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar hamda kompetensiyaviy model asosida tashkil etiladigan uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi. Bunda ta’limning asosiy maqsadi shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati va kasbiy raqobatbardoshligini rivojlantirishdan iborat. Ammo innovatsion jarayonning samaradorligi faqat texnologik yangilanish bilan emas, balki uning ma’naviy-axloqiy asoslari bilan belgilanadi.

Pedagogika tarixida tarbiya va ta’limning ajralmasligi g‘oyasi alohida ta’kidlangan. Xususan, Pedagogika asarida ta’lim va tarbiya bir butun jarayon sifatida ko‘rilib, shaxs kamolotida axloqiy mezonlar hal qiluvchi o‘rin egallashi asoslab berilgan. Zamonaviy innovatsion ta’lim konsepsiyasi ham mazkur yondashuvni inkor etmaydi, aksincha, uni yangi bosqichga ko‘taradi.

Normativ-huquqiy jihatdan ham innovatsion ta’lim va ma’naviy tarbiya integratsiyasi muhim vazifa sifatida belgilangan. Ta’lim to‘g‘risidada ta’limning insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ma’naviy barkamol, yuksak malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Demak, innovatsion ta’limning metodologik poydevori aksiologik (qadriyatlarga yo‘naltirilgan), shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlarning uyg‘unligiga tayana

Innovatsion ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiyaning funksional roli

Innovatsion ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Aksiologik funksiya – talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiradi, ularni ongli ravishda anglash va amaliy faoliyatda namoyon etishga yo‘naltiradi.

Regulyativ funksiya – shaxsning xulq-atvorini axloqiy me’yorlar asosida tartibga soladi, innovatsion faoliyatda mas’uliyat hissini mustahkamlaydi.

Motivatsion funksiya – ijodiy izlanish va yangilikka intilish jarayonini ijtimoiy foydali maqsadlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Integrativ funksiya – kasbiy bilimlar, ijtimoiy tajriba va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan sharoitda shaxsning ma’naviy immunitetini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta’lim muhiti talabalarda tanqidiy tafakkur, media madaniyat va axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning axloqiy mas’uliyatini ham kuchaytirishi lozim.

Ma’naviy tarbiya va innovatsion kompetensiyalar uyg‘unligi

Innovatsion ta’lim modelida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor o‘rin tutadi. Bunda kasbiy, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va ijtimoiy kompetensiyalarni

shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur kompetensiyalar ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgandagina barkamol shaxs modeli yuzaga keladi.
Masalan, ijodiy kompetensiya ma’naviy mezonlar bilan boyitilmasa, u ijtimoiy mas’uliyatsizlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, ijodkorlik va ma’naviy ong uyg‘unlashganda, yangilik yaratish jarayoni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.
Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta’lim jarayonida quyidagi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

fanlararo integratsiya asosida ma’naviy-axloqiy masalalarni muhokamaqilish;
interfaol metodlar orqali qadriyatlar tahlilini tashkil etish;
loyiha va tadqiqot faoliyatida ijtimoiy mas’uliyat mezonlarini belgilash;
talabalarning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

Innovatsion ta’limda ma’naviy muhitni shakllantirish omillari

Ta’lim muassasasida ma’naviy muhitni shakllantirish pedagogik jamoa, ta’lim mazmuni va boshqaruv tizimining o‘zaro hamkorligiga bog‘liq. Innovatsion ta’lim muhiti ochiqlik, hamkorlik va kreativlik tamoyillariga asoslanadi. Bunday muhitda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy yetakchi, mentor va motivator sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Innovatsion ta’lim sharoitida ma’naviy tarbiya masalasi pedagogik jarayonning ikkilamchi unsuri emas, balki uning mazmuniy va aksiologik negizini tashkil etuvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlar keng joriy etilayotgan bir paytda, shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki innovatsion rivojlanishning barqarorligi faqat intellektual salohiyat bilan emas, balki yuksak ma’naviy mezonlar bilan ham belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta’lim va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi integratsiya talabalarda tanqidiy va kreativ tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol, raqobatbardosh hamda ma’naviy yetuk kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Normativ-huquqiy asoslar, xususan Ta’lim to‘g‘risida hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan tamoyillar innovatsion ta’lim jarayonida ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligini ta’minlash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois ta’lim amaliyotida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, ma’naviy muhitni shakllantirish, qadriyatlarga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’limning samaradorligi uning ma’naviy komponenti bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida intellektual rivojlanish va ma’naviy barkamollik uyg‘unligini ta’minlash zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu yo‘nalishdagi izlanishlar ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni. – Toshkent: 2020.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: 2022.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish masalalari bo‘yicha nutq va ma’ruzalar. – Toshkent, 2021–2023.
4. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
5. Paulo Freire. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970.
6. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

MAMLAKAT IQTISODIY O‘SISHIDA EKSPORT SALOHIYATINING ROLI VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti
Tel: (95) 102-36-09
E-mail: madinaberdivaliyeva@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-4794-8138

Kirish. Bugungi kunda har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan uning eksport imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Jahon iqtisodiyoti tobora integratsiyalashib borayotgan bir paytda, mamlakatlarning xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini topishi va mustahkamlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan eksport salohiyatining rivojlanishi orqali davlatlar nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki o‘z raqobatbardoshligini ham oshiradi. Shu sababli eksportni rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Iqtisodiy o‘sish ko‘plab omillar bilan belgilanadi, ular orasida yalpi ichki mahsulot, investitsiyalar hajmi va tashqi savdo ko‘rsatkichlari alohida o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilib, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmi sezilarli darajada ortib, ishlab chiqarish va iqtisodiy faollik kengayib bormoqda. Eksport hajmining izchil oshib borayotgani esa mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu holat milliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda tobora ko‘proq talab qilinayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning ko‘payishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining qanday rivojlanayotganini tushunish uchun uning asosiy ko‘rsatkichlariga e’tibor berish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, yalpi ichki mahsulot, investitsiyalar hajmi hamda eksport va import ko‘rsatkichlari iqtisodiy o‘sishning real holatini yaqqol namoyon etadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning yillar davomida qanday o‘zgarib borishini tahlil qilish orqali iqtisodiyotdagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, quyidagi jadvalda 2010–2025 yillar davomida mamlakat iqtisodiy o‘sishini aks ettiruvchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar keltirilgan.

1.1-jadval.

2010–2025 yillarda mamlakat iqtisodiy o‘sishi va tashqi savdo ko‘rsatkichlari dinamikasi[1].

Yil	YaIM (mlrd so‘m)	Investitsiya (trln so‘m)	Import (mlrd $)	Eksport (mlrd $)	Tashqi savdo balansi (mlrd $)
2010	62 081,0	13,0	8,5	9,7	+1,2
2011	77 504,0	15,3	10,5	11,6	+1,1
2012	96 589,0	18,4	11,8	12,5	+0,7
2013	120 861,0	21,5	13,9	13,7	-0,2
2014	145 846,0	25,2	14,6	14,1	-0,5
2015	171 808,0	29,0	13,5	13,5	0,0
2016	199 325,0	34,5	12,1	12,1	0,0
2017	249 136,4	60,7	12,0	12,9	+0,9
2018	407 514,5	107,3	19,6	14,3	-5,3
2019	511 838,1	189,9	24,3	17,9	-6,4
2020	580 203,2	202,0	21,2	15,1	-6,1
2021	734 587,7	245,0	25,5	16,6	-8,9
2022	888 341,7	269,9	30,7	19,3	-11,4
2023	1 066 569,0	352,1	38,1	24,4	-13,7
2024	1 454 573,9	493,7	39,0	26,9	-12,1
2025	1 849 650,0	591,1	47,3	33,8	-13,5

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar mamlakat iqtisodiyotining so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yalpi ichki mahsulot hajmining yil sayin ortib borishi iqtisodiy faollikning oshayotganidan va ishlab chiqarish hajmining kengayayotganidan dalolat beradi. Bu esa iqtisodiyotda ijobiy jarayonlar izchil davom etayotganini anglatadi. Investitsiyalar hajmining o‘sib borayotgani ham muhim jihatlardan biridir. Chunki iqtisodiyotga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar ortgani sari yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, infratuzilma yaxshilanadi va zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshib, eksport imkoniyatlari ham kengayib boradi. Tashqi savdo ko‘rsatkichlariga nazar tashlasak, eksport

[1] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

hajmi yildan-yilga ortib borayotgani ijobiy holat sifatida baholanadi. Bu mamlakat mahsulotlariga tashqi bozorlarda talab oshib borayotganini bildiradi. Shu bilan birga, import hajmining ham yuqori sur’atlarda o‘sayotgani kuzatiladi. Ayrim yillarda import eksportdan ustun kelgani tashqi savdo balansida manfiy farqni yuzaga keltirgan. Bunday holat iqtisodiyotda ayrim mahsulotlar bo‘yicha tashqi bozorlarga bog‘liqlik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli eksportni rivojlantirish, ayniqsa yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Mamlakat iqtisodiy o‘sishida eksport salohiyatining o‘rni va uni rivojlantirish omillari[2].

1-rasmda mamlakat iqtisodiy o‘sishida eksport salohiyatining o‘rni tizimli va o‘zaro bog‘liq holda aks ettirilgan. Mind mapda eksport salohiyati markaziy element sifatida olinib, unga ta’sir etuvchi omillar, rivojlantirish mexanizmlari va yakuniy natijalar bosqichma-bosqich yoritilgan, eksport salohiyatining oshishi iqtisodiy o‘sish bilan chambarchas bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. Ya’ni, eksport hajmining ortishi ishlab chiqarishning kengayishiga, investitsiyalarning ko‘payishiga hamda bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Bu jarayonlar natijasida yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sishi ta’minlanadi, eksportni shakllantiruvchi asosiy omillar ham alohida ajratilgan. Xususan, valyuta tushumlarining ortishi, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining kengayishi va milliy mahsulotlarning

[2] **Muallif tomonidan ilmiy manbalar va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida ishlab chiqildi.**

raqobatbardoshligi eksport faoliyatining muhim natijalari sifatida namoyon bo‘ladi. Eksport salohiyatini oshirish mexanizmlari qatorida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish hamda logistika infratuzilmasini rivojlantirish muhim yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan. Bu omillar eksport hajmini nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham oshirishga xizmat qiladi, davlat siyosati eksportni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan. Strategik rejalashtirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish orqali eksport faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, eksport salohiyatini oshirish mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda iqtisodiyotda kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlar, xususan YaIM va investitsiyalar hajmining ortishi eksport imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tashqi savdo balansidagi ayrim nomutanosibliklar eksportni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Eksportni oshirish uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko‘paytirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda logistika tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari va strategik yondashuvlar eksport salohiyatini mustahkamlashda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida** PF–21-son Farmon, 2026-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. **Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami**, 2010–2025 yillar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. **Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili va prognozlari**, 2023.

4. Jahon banki. Jahon rivojlanish ko‘rsatkichlari

5. Xalqaro valyuta jamg‘armasi. Jahon iqtisodiyoti istiqbollari hisobotlari.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARI: SIYOSIY JARAYONLAR TAHLILI

B.M.Azimov,
Harbiy xavfsizlik va Mudofaa Universiteti THO fakulteti kafedra boshlig‘i, dotsent

Annotatsiya

Mazkur tezisda Turkistonda jadidchilik harakatlarining shakllanish bosqichlari, uning ijtimoiy-siyosiy mazmuni va mustamlakachilik sharoitida milliy ongni uyg‘otishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, jadidchilikning siyosiy modernizatsiya, milliy davlatchilik g‘oyalari va ma’rifiy islohotlar bilan bog‘liq jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

Jadidchilik, Turkiston, siyosiy modernizatsiya, milliy uyg‘onish, mustamlakachilik, ma’rifatparvarlik, islohot, milliy davlatchilik.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston hududi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylandi. Bu jarayon mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur sharoitda milliy ziyoliylar qatlami tomonidan jadidchilik harakati shakllanib, u nafaqat ma’rifiy, balki siyosiy mazmun kasb etdi.



Jadidchilik harakati – bu modernizatsiyaga qaratilgan, milliy o‘zlikni anglash va mustaqil taraqqiyotga intilishni ifoda etgan kompleks ijtimoiy siyosiy fenomendir. Uning asosiy maqsadi jamiyatni isloh qilish, ta’lim tizimini yangilash va mustamlakaviy qaramlikdan xalos bo‘lish edi.

1. Jadidchilik harakatining shakllanish omillari.

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

mustamlakachilik siyosati – Rossiya imperiyasining ma’muriy-boshqaruv tizimi mahalliy aholi manfaatlarini chekladi;

ijtimoiy stagnatsiya (rivojlanishning to‘xtab qolishi) – an’anaviy ta’lim tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi;

milliy ongning shakllanishi – milliy identifikatsiya va o‘zlikni anglash jarayonlari.

Jadidlar o‘z faoliyatida *“usuli jadid”* (yangi usul) ta’lim tizimini joriy etish orqali jamiyatni isloh qilishga harakat qiladilar. Bu jarayon ta’limni siyosiy transformatsiyaning asosiy vositasiga aylantirdi.



2. Jadidchilikning siyosiy mazmuni va evolyutsiyasi.

Dastlab jadidchilik harakati ma’rifiy xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u siyosiy tus oldi, bu jarayonni bir nechta bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich: Ma'rifiy uyg'onish (1890-1905)
yangi maktablar tashkil etilishi;
matbuotning ritvojlanishi;
jamiyatda savodxonlikni oshirish.



2-bosqich: Siyosiy faollashuv (1905-1917)
Rossiyadagi 1905 yil inqilobi ta'siri;
milliy matbuot va partiyaviy fikrlarning shakllanishi;
avtonomiya g'oyalarining ilgari surilishi.
3-bosqich: Davlatchilik g'oyalari (1917-1920)
Turkiston muxtoriyati harakatlari;
milliy parlament va hukumat tuzishga urinishlar;
siyosiy plyuralizm elementlari.
Jadidlar tomonidan ilgari surilgan siyosiy g'oyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
konstitutsion boshqaruv;
milliy parlament;
fuqarolik jamiyati institutlari;
ta'lim orqali modernizatsiya.
3. Jadidchilik va milliy davlatchilik konsepsiyasi.
Jadidchilik harakatida milliy davlatchilik g'oyasi markaziy o'rin egallagan, bu g'oya quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lgan:
Siyosiy avtonomiya – *Turkistonni mustaqil boshqarish;*
Huquqiy davlat qurish – *qonun ustuvorligi*;
Milliy kadrlarni tayyorlash – *boshqaruv tizimida mahalliy mutaxassislar;*
Madaniy suverenitet – *milliy til va madaniyatni rivojlantirish*;
Jadidlar siyosiy modernizatsiyani "*ta'lim – islohot - taraqqiyot*" zanjiri orqali amalga oshirishga taklif qilganlar.
4. Jadidchilik harakatining inqirozi va tarixiy ahamiyati.
1920-yillarga kelib jadidchilik harakati siyosiy sabablarga ko'ra inqirozga uchradi, sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan:



mustaqil siyosiy harakatlar cheklandi;
milliy ziyoliylar ta'qib qilindi;
jadidchilik g'oyalari repressiya qilindi.
Shunga qaramasdan, jadidchilik harakati quyidagi tarixiy ahamiyatga ega:
milliy uyg'onish jarayonini boshlab berdi;
zamonaviy ta'lim tizimiga asos soldi;
mustaqillik g'oyalarini shakllantirdi;
siyosiy fikrlash madaniyatini rivojlantirdi.

Xulosa

Turkistonda jadidchilik harakati ijtimoiy-siyosiy transformatsiyaning muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘ldi. U nafaqat ma’rifiy islohotlar, balki milliy *davlatchilik va siyosiy mustaqillik* g‘oyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan modernizatsion konsepsiyalar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ular milliy taraqqiyot modelini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Behbudiy “Tanlangan asarlar”.
2. A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”.
3. B.Qosimov “Jadidchilik tarixi”.
4. A. Xalid “The Politics of Muslim Cultural Reform”.
5. Adeeb Khalid “Making Uzbekistan”.

Internet manbalar:

1. ziyonet.uz;
2. uza.uz;
3. vikipedia.org.

ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ УЛЬТРАЗВУКОВОГО И МОРФОМЕТРИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА У ПАЦИЕНТОВ С НИЗКИМ УРОВНЕМ СЕНСИБИЛИЗАЦИИ ПОСЛЕ ТРАНСПЛАНТАЦИИ ПОЧКИ

Курбанов Обид Махсудович[1], Норкузиев Шерали Сафаралиевич[2], Муминов Жавохир Аслиддинович[2]

[1]д.м.н., доцент Бухарский государственный медицинский институт (Бухара, Узбекистан. e-mail:kurbanov.obid@bsmi.uz)

[2]Самостоятельные соискатели Бухарского государственного медицинского института. Самаркандский областной многопрофильный медицинский центр (Самарканд, Узбекистан)

Целью исследования явилась комплексная оценка диагностической информативности лабораторных и морфометрических ультразвуковых параметров у пациентов с низким уровнем сенсибилизации после трансплантации почки. В исследование были включены 41 пациент, перенёсший родственную трансплантацию почки. Уровень панельной реактивности антител (PRA) у всех пациентов составлял менее 10%, донор-специфических антител (DSA) не выявлено. Мониторинг включал динамическое измерение уровня креатинина, мочевины, лейкоцитарного индекса интоксикации (ЛИИ), а также ультразвуковую оценку объёма трансплантата, толщины паренхимы, индекса резистентности (IR) и венозного кровотока. По результатам наблюдения установлено, что к 15 суткам после трансплантации средний уровень креатинина снижался до 123,6±18,2 мкмоль/л, мочевины — до 8,2±1,3 ммоль/л, ЛИИ — до 1,35±0,21. Ультразвуковое исследование показало стабильный прирост объёма трансплантата до 228–230 см³ и толщины паренхимы до 1,8 см, а индекс резистентности к 30 суткам стабилизировался в пределах 0,64–0,66. У 92% пациентов отмечалась немедленная функция трансплантата, верифицированная по раннему диурезу и снижению креатинина. Морфологические изменения по данным биопсий у 85% пациентов отсутствовали или носили минимальный характер (i0–t0–v0 по Banff классификации). Вывод: в группе пациентов с низкой иммунологической

нагрузкой динамический морфометрический и лабораторный мониторинг позволяет надёжно оценить функциональное состояние трансплантата, а также своевременно выявлять начальные отклонения без необходимости частых биопсий. Ультразвуковое исследование является высокоэффективным и неинвазивным методом ранней диагностики после трансплантации.

ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ И ЛАБОРАТОРНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАК ПРОГНОСТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ДИСФУНКЦИИ ПОЧЕЧНОГО ТРАНСПЛАНТАТА У ВЫСОКОСЕНСИБИЛИЗИРОВАННЫХ РЕЦИПИЕНТОВ

Курбанов Обид Махсудович[1], Норкузиев Шерали Сафаралиевич[2], Муминов Жавохир Аслиддинович[2]

[1]д.м.н., доцент Бухарский государственный медицинский институт (Бухара, Узбекистан. e-mail:kurbanov.obid@bsmi.uz)

[2]Самостоятельный соискатель Бухарского государственного медицинского институт Самаркандский областной многопрофильный медицинский центр (Самарканд, Узбекистан)

Целью исследования являлось определение диагностической и прогностической значимости сочетанной оценки лабораторных, ультразвуковых и морфологических параметров у высокосенсибилизированных пациентов после родственной трансплантации почки. В исследование были включены 31 высокосенсибилизированных пациента с уровнем панельной реактивности антител (PRA) выше 70% и наличием донороспецифических антител (DSA), перенесших трансплантацию почки от живого родственного донора. Всем пациентам проводилось динамическое наблюдение с оценкой уровня креатинина, мочевины, лейкоцитарного индекса интоксикации (ЛИИ), а также ультразвуковое исследование трансплантата с измерением объёма, толщины паренхимы, индекса резистентности (IR) и венозного кровотока. При наличии клинических и инструментальных признаков дисфункции трансплантата проводилась пункционная биопсия с морфологической верификацией изменений по классификации Banff 2019.

Результаты исследования показали, что уже на 5–9 сутки после трансплантации у части пациентов с сохраняющимся повышенным уровнем креатинина (>200 мкмоль/л) и ЛИИ (>2,5) выявлялись выраженные морфологические изменения:

интерстициальное воспаление и тубулит II степени (i2–t2). УЗИ-данные у этих пациентов также демонстрировали неблагоприятную динамику — повышение IR выше 0,75, снижение венозного кровотока менее 14 мл/с и отсутствие прироста толщины паренхимы (<1,7 см к 15-м суткам). Напротив, пациенты с положительной динамикой лабораторных показателей (снижение креатинина до <150 мкмоль/л, ЛИИ <1,5) имели удовлетворительную ультразвуковую картину (IR <0,68, объём трансплантата >230 см³, венозный кровоток >20 мл/с), а морфологическое исследование в этих случаях не выявляло выраженных изменений (i0–i1/t0–t1).

Заключение: выявлена тесная взаимосвязь между лабораторными, ультразвуковыми и морфологическими признаками, отражающими состояние почечного трансплантата у высокосенсибилизированных пациентов. Комплексная неинвазивная оценка позволяет проводить раннюю стратификацию риска, прогнозировать развитие отторжения и адаптировать терапию до появления клинически выраженной дисфункции. Внедрение данной методики в клиническую практику повышает эффективность мониторинга и снижает частоту инвазивных вмешательств.

ОПТИМИЗАЦИЯ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ТАКТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ УРЕТЕРОЦИСТОАНАСТОМОЗА ПРИ РОДСТВЕННОЙ ТРАНСПЛАНТАЦИИ ПОЧКИ

Муминов Жавохир Аслиддинович

Самостоятельный соискатель Бухарского государственного медицинского институт Самаркандский областной многопрофильный медицинский центр (Самарканд, Узбекистан)

Цель — провести сравнительную оценку эффективности стандартной и модифицированной хирургической тактики формирования уретероцистоанастомоза при родственной трансплантации почки и определить их влияние на частоту урологических осложнений в раннем послеоперационном периоде.

Методы — в исследование включены 72 пациента с терминальной стадией хронической болезни почек, которым в 2021–2025 годах выполнена родственная трансплантация почки. В зависимости от хирургической тактики формирования уретероцистоанастомоза пациенты распределены на две группы: I группа — стандартная тактика (n=33), II группа — модифицированная тактика (n=39). Внутри групп выделены подгруппы с учетом иммунологического статуса: несенсибилизированные и высокосенсибилизированные реципиенты. Всем пациентам проводился стандартный клинико-лабораторный и ультразвуковой мониторинг в раннем послеоперационном периоде (1, 2, 3, 5, 9, 15 и 30 сутки). Оценивали частоту урологических осложнений в зоне уретероцистоанастомоза, включая обструкцию, утечку мочи, уриномы, лимфоцеле, а также необходимость дополнительных вмешательств. Статистическую обработку проводили с использованием стандартных методов, различия считались значимыми при $p<0,05$.

Результаты — в общей когорте зарегистрирован 1 случай урологического осложнения, что составило 1,39% (1/72). В группе стандартной хирургической тактики осложнение отмечено у 1 пациента (3,03%), тогда как в группе модифицированной тактики осложнений не зарегистрировано (0%). Подгрупповой анализ показал, что осложнение возникло у высокосенсибилизированного реципиента и было связано с компрессионной обструкцией мочевых путей на фоне лимфоцеле. Своевременная ультразвуковая диагностика позволила выполнить пункцию лимфоцеле, что привело к регрессу обструкции и стабилизации состояния пациента. В группе модифицированной тактики отсутствовали случаи утечки мочи, стеноза, уриномы и необходимости повторных вмешательств. Полученные данные свидетельствуют о более благоприятном течении раннего послеоперационного периода при использовании модифицированной техники.

Заключение — модифицированная хирургическая тактика формирования уретероцистоанастомоза, включающая формирование расширенного подслизистого тоннеля, выполнение анастомоза без натяжения и минимизацию компрессионного воздействия на ткани, способствует снижению частоты ранних урологических осложнений после трансплантации почки. Применение данной техники обеспечивает более стабильное течение послеоперационного периода и особенно важно у пациентов с высоким иммунологическим риском.

TRANSPORT VA TURIZM OBYEKTLARIDA SODIR ETILGAN O‘G‘IRLIK JINOYATINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Turg`unov Ahror Ravshan o`g`li
Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni
Ta`minlash departamenti huzuridagi tergov boshqarmasi
Jinoyatlarni tergov qilish bo`limi, O`MIB tergovchisi kapitan

Annotatsiya. Mazkur tezisda transport va turizm obyektlarida sodir etiladigan o‘g‘irlik jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari jinoyat-huquqiy va kriminologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o‘g‘irlik jinoyatining yashirin talon-toroj sifatidagi huquqiy mazmuni, transport infratuzilmasi obyektlarining huquqiy tabiati, turistik industriya obyektlarining tarkibi hamda joylashtirish vositalarida shaxs va mol-mulk xavfsizligini ta’minlashga oid talablar bir butun tizimda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: o‘g‘irlik, transport infratuzilmasi, turizm obyektlari, turistik industriya, vokzal, aeroport, mehmonxona, bagaj, yashirin talon-toroj.

KIRISH

O‘g‘irlik jinoyati mulkka qarshi qaratilgan qilmishlar ichida eng ko‘p uchraydigan turlardan biri bo‘lib, uning huquqiy mohiyati o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishda namoyon bo‘ladi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining amaldagi tushuntirishlariga ko‘ra, jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar yo‘qligida, yoxud ular mavjud bo‘lsa-da, aybdor o‘z harakati sezilmayapti deb hisoblagan holda mulkni yashirin egallash o‘g‘irlik deb tavsiflanadi; jabrlanuvchining kiyimida, qo‘lida yoki bevosita yonida bo‘lgan sumka, chamadon va shunga o‘xshash buyumlardan yashirin talon-toroj qilish esa kissavurlik sifatida baholanadi [2]. Shu umumiy huquqiy mezon transport va turizm obyektlarida ham amal qiladi, biroq bu makonlarda jinoyatning sodir bo‘lish sharoiti, jabrlanuvchi xulq-atvori, mulkning joylashuvi, nazorat rejimi va voqea joyining dinamik tabiati o‘g‘irlikka alohida xususiyat bag‘ishlaydi. Aynan shuning uchun transport va turizm

obyektlarida sodir etilgan o‘g‘irliklarni oddiy maishiy o‘g‘irliklardan ajratib tahlil qilish zarur bo‘ladi. Ularning o‘ziga xosligi faqat voqea joyida emas, balki jinoyatni aniqlash, izlarni mustahkamlash, jabrlanuvchining jinoyatni kech sezishi, shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning xavfsizlik bo‘yicha majburiyatlari bilan ham belgilanadi. Bu masala ayniqsa dolzarb, chunki transport va turizm tizimlari jamiyatning harakatlanish, xizmat ko‘rsatish va xalqaro aloqalardagi eng ochiq hamda eng gavjum segmentlaridan hisoblanadi [1], [2].

ASOSIY QISM

Transport obyektlarida sodir etilgan o‘g‘irlik jinoyatining birinchi muhim xususiyati uning makoniy-dinamik tabiatidadir. “Transport to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, transport infratuzilmasi obyektlari yo‘lovchilarga, yuk jo‘natuvchilarga, yuk oluvchilarga, tashuvchilarga va tashish jarayonining boshqa ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatish hamda transport vositalarining ishlashini ta’minlash uchun mo‘ljallangan inshootlar va ishlab chiqarish-texnologik majmualarni o‘z ichiga oladi [3]. Vokzal, aerovokzal, aeroport, metro, avtostansiya va shunga o‘xshash maskanlar bir vaqtning o‘zida juda ko‘p shaxslar kirib-chiqadigan, qisqa muddatli aloqa hukm suradigan, odamlar e’tibori safarga tayyorgarlik, chipta, navbat, bagaj, kuzatuvchi va qarshi oluvchilar bilan band bo‘ladigan hududlardir. Bunday joylarda o‘g‘irlik sodir etilishi uchun eng qulay vaziyat shaxsiy nazoratning susayishi, mulkning qo‘ldan vaqtincha chiqishi, yo‘lovchining charchagan yoki shoshayotgan holati va atrofdagilar orasida anonimlikning yuqori bo‘lishidir. Transport sohasida obyektlarning zaifligini baholash, ularni g‘ayriqonuniy aralashuvdan himoya qilish, kirish joylarida ko‘zdan kechirish, bagaj va yukni nazorat qilish kabi institutlarning mavjudligi ham aynan shu sohaning xavfga moyilligini ko‘rsatadi [3]. Demak, transportdagi o‘g‘irlik jinoyati alohida “harakatdagi muhit” jinoyati bo‘lib, bunda jabrlanuvchi, predmet va ehtimoliy aybdorning makondagi joylashuvi bir necha daqiqada o‘zgarib ketadi [3].

Transport obyektlaridagi o‘g‘irlikning ikkinchi o‘ziga xos belgisi jabrlanuvchi bilan jinoyat subyekti o‘rtasidagi aloqaning qisqa, tasodifiy va ko‘pincha izsiz kechishidir. Kriminologik kuzatishlarda transportdagi mulkiy jinoyatlar, ayniqsa temir yo‘l transportida, ko‘p hollarda tasodifiy tanlangan jabrlanuvchi, qisqa muddatli kuzatuv va tezkor harakat

bilan bog‘liq ekani qayd etiladi; bu yerda jinoyatchi jabrlanuvchining beparvoligi, charchoqligi yoki e’tibori bo‘lingan holatidan foydalanadi [5]. Odatda bunday jinoyatlarda predmet sifatida telefon, pul, hujjat, zargarlik buyumi, qo‘l yuki, yo‘l sumkasi, ba’zan esa yuk va bagaj qatnashadi. Jinoyatning aniqlanishi ham ko‘pincha kechikadi: yo‘lovchi manzilga yetgach, kuzatuvchi shaxs ketgach yoki bagaj qayta ochilgandan keyingina mulk yo‘qligi seziladi. Shu sababli voqea joyi “muzlab qolgan” holatda bo‘lmaydi, aksincha u harakat davomida parchalanib ketadi. Bu esa o‘g‘irlikni isbotlashda videokuzatuv, kirish-chiqish nazorati, bagaj topshirish punktlari ma’lumotlari, transport jadvali, chipta va marshrut ma’lumotlari kabi qo‘shimcha manbalarning ahamiyatini oshiradi. Yana bir jihat shuki, transportdagi o‘g‘irliklar ko‘pincha ko‘pchilik ichida sodir bo‘lgani sababli jabrlanuvchi voqea sodir bo‘lgan aniq daqiqani eslay olmaydi. Natijada jinoyatning yashirinlik belgisi kuchayadi, jabrlanuvchi sezmasligi yoki sezsa ham darhol reaksiyaga kirisha olmasligi jinoyatning muvaffaqiyatiga xizmat qiladi [2], [5].

Transportdagi o‘g‘irlikning uchinchi muhim xususiyati uning xizmat rejimi va xavfsizlik tizimi bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Qonunchilikda vokzal, aerovokzal, aeroport, metro va avtostansiyaga kirishda transport vositasi, bagaj, yuk bagaji va yukni ko‘zdan kechirish mumkinligi, shuningdek, transport infratuzilmasi obyektlarining zaifligini baholash va texnik nazorat vositalari bilan jihozlash zarurligi belgilangan [3]. Bir qarashda bu holat xavfsizlik darajasini oshiradigandek tuyuladi, biroq kriminologik nuqtayi nazardan u yana bir murakkablikni yuzaga chiqaradi: xavfsizlik mavjud bo‘lgan joyda jinoyatchi odatda aynan nazoratning uzilish nuqtalarini qidiradi. Masalan, kirish-chiqish zichligi yuqori bo‘lgan payt, smena almashinuvi, yo‘lovchi oqimining kuchayishi, kutish zallari, perronlar yoki bagajni vaqtinchalik qoldirish holatlari xavfli segmentga aylanadi. Bu yerda jinoyat sodir etish usulidan ko‘ra, jinoyat uchun “vaziyat tanlash” muhimroq bo‘ladi. Shu ma’noda transportdagi o‘g‘irliklar situatsion jinoyatlarga juda yaqin turadi. Yana bir alohida jihat shundaki, bunday qilmishlar transport tizimiga nisbatan ishonchni pasaytiradi. O‘g‘irlik nafaqat jabrlanuvchining mulkiga, balki tashish xavfsizligi haqidagi tasavvurga ham zarba beradi. Demak, transport obyektlaridagi o‘g‘irlikni baholashda mulkiy zarar bilan

bir qatorda transport xizmatining xavfsizlik imijining buzilishi ham inobatga olinishi lozim [2], [3].

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, transport va turizm obyektlarida sodir etilgan o‘g‘irlik jinoyati umumiy o‘g‘irlik tarkibi doirasida baholansa-da, uning o‘ziga xos xususiyatlari aniq ajralib turadi. Transport obyektlarida bu jinoyatning bosh belgilari sifatida gavjumlik, tranzitlik, qisqa aloqa, anonimlik, bagaj va qo‘l yuklarining ko‘pligi, jinoyat sodir bo‘lgan joyning tez o‘zgaruvchanligi va jabrlanuvchining mulk yo‘qolganini kech sezishi ko‘rinadi. Turizm obyektlarida esa vaqtinchalik yashash muhiti, dam olish kayfiyatida hushyorlikning susayishi, ishonch va xizmat munosabatlari, qimmatbaho buyumlarning bir joyga jamlanishi, voqea aniqlanishining kechikishi va xizmat ko‘rsatuvchi subyekt xavfsizlik majburiyatining mavjudligi asosiy farqlovchi omillardir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

[1] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi 6-sonli “O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[3] O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[4] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[5] Gribunov O.P., Ishigeev V.S. Xarakteristika lichnosti prestupnika, sovershayushchego krazhi na ob’ektax transporta // Kriminologicheskiy jurnal Baykal’skogo gosudarstvennogo universiteta ekonomiki i prava. 2015. T. 9. № 2. S. 248–256. DOI: 10.17150/1996-7756.2015.9(2).248-256.

ALISHER NAVOIY IJODINING ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI

f.f.f.d.(PhD) Ra’no Payzullayeva,

ranofayzullayeva8@gmail.com

NavDU doktoranti

Annotasiya: Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi birinchi doston “Hayrat ul-abror” dostoni hisoblanib, shoir Sirojiddin Sayyid “Hayrat ul-abror” ta’sirida o‘zining “Xamsa hayratlari” nomli turkum she’rlarini yaratadi. Ushbu tezisda Sirojiddin Sayyidning “Xamsa hayratlari” tarkibiga kiruvchi ba’zi she’rlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, hamd va na’t, maqolat, hayrat.

Mumtoz adabiyot bitmas-tuganmas xazinadir. Alisher Navoiy ijodi esa bu xazinaning noyob duru gavharidir. Shuning uchun har bir davrda ijod ahli Alisher Navoiy ijodiga murojaat etishadi va undan o‘rganib, mumtoz adabiyot an’analarini o‘z ijodlarida davom ettirishga harakat qilishadi. Bu harakatlar o‘ziga xos yangi tajribalar tug‘ilishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, Alisher Navoiy yaratgan buyuk “Xamsa”ni bugungi avlod tushunib yetishi uchun unga murojaat qilish va undagi ma’ni durlarini sharhlash tajribasini Omon Matjon boshlab berdi. Uning “Ming bir yog‘du” deb nomlangan ma’rifiy dostoni “Xamsa” mohiyatini anglashda juda katta ma’rifiy ahamiyatga ega. “Ayrim bir kishi “Xamsa”ni to‘laligicha ilg‘ab-uyqab olishi qiyin. Bu ko‘pchilik mehnatini, uyg‘un idrokni talab qiladigan ish! Har bir avlod bu borada o‘z faolligini ko‘rsatishi kerak”[3], deydi shoir dostonning muqaddimasida. Omon Matjonning Navoiy “Xamsa”sining har bir satridan yog‘du taralishini his etib hayratga tushadi. Hayrat – aql bovar qilmaslik, mo‘jiza qoshida lol qolishdan tug‘ilgan holat. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul unga muxtasar ta’rif bergan: “Hayrat–kutilmagan g‘aroyibotlar, favqulodda tilsimli hodisalardan aqlning ajablanishi.

[3] Матжон Омон, Эркин ҳаволарда, битиклар, драматик достон, шеърий қисса, шеърлар, Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997 й. Б.4.

Hayrat – inson ruhining hududsiz koinot asrorlaridan taajjublanishi. Hayrat–ko‘ngil tilsimi.”[4]

Navoiy ijodi marvaridlarga to‘la bir ummonki, har qanday g‘avvos ummon tubigacha yeta olmas, uning fikr kengliklari bir osmonki, har qanday sayyor kezib chiqa olmas. Har bir adabiyotshunos, har bir ijodkor Navoiy asarlarini o‘qib, uqib olishga intiladi.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasig‘a panja urmoq,

degan Navoiyning fikrlari aforizmga aylanib ketgan. Alisher Navoiy “panjasiga panja urmoq” esa yana ham mushkul bir ish. Uning bir baytini sharhlash, birgina baytda ifodalangan ma’no-mazmun mohiyatini anglata olish nihoyatda qiyin. Ana shunday zalvorli vazifani uddalashni Sirojiddin Sayyid zimmasiga olgani uning naqadar mahorat va jasorat sohibi ekanligini ko‘rsatadi hamda bu tajribani davom ettirib, “Xamsa” hayratlari” turkumini yaratdi. Shoirning ulug‘ daho, so‘z san’atkorining muazzam badiiy obidasi qoshida hayratga tushishi bejiz emas. “Hayrat ul-abror” dostoni maqolotlarining ba’zi baytlariga yozilgan sharhlar chindan ham hayratni oshiradi. Baytlarni sharhlar ekan, shoir o‘z hayratini yashirmaydi: “Satrma-satr, baytma-bayt–ustma-ust hayrat, varaqma-varaq, dostonma-doston, kitobma-kitob – to‘la hayrat. ...Navoiy hayratlari tugamaydi. “Xamsa” hayratlari tuganmasdir.”[5]

Sirojiddin Sayyid “Hayrat ul-abror” dostonini chanqoqlik bilan mutolaa qiladi. “Munojot”, “Na’t”, “Maqolot”larda aytilgan fikrlar mag‘zi-mazmunini rosa aql-idrok elagidan o‘tkazib, ulardan olgan hayratlari, saboqlari, xulosalarini she’riy misralarda ifodalaydi. “Nazm tog‘ida” she’rining tug‘ilishiga dostonning beshinchi na’tida kelgan ushbu bayt sabab bo‘lgan:

Ranj tog‘in qozmoq aning peshasi,

[4] Ҳаққулов Иброҳим, “Хамса” бадиятига доир, “Алишер Навоий “Хамса”си(тадқиқотлар)”, Тошкент, “ФАН” нашриёти, 1986 й. Б.122.

[5] Саййид Сирожиддин. Асарлар, IV жилд, Тошкент, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019 й. Б.14.

Tog‘i aning nazm-u tili teshasi.[6]

She’rda baytdagi so‘zlarning ma’nolari sharhlanmaydi, balki Navoiyning mashaqqat chekib tog‘ni qazish ijodkorning kasbi ekanligi, tog‘ u yaratgan nazmiy asarlari, tili esa o‘sha nazm tog‘ini qazgan teshasi ekanligiga o‘z munosabatini bildiradi. Navoiy aytganidek nazm tog‘ini qazish nihoyatda qiyin va mas’uliyatli ekanligi, Navoiy zamonidagi kabi bu ishda ham taqlidchilar, to‘tilar davr-u davron surib yurganligini o‘ksinib aytadi.

Yuksalib borgaydir bu tog‘ bosh uzra,

Dil bunda bolg‘a-yu til tesha bo‘lgay.

Mayda ma’dantosh yo chaqmoqtosh uzra

Ming bir mashaqqat-u andesha bo‘lgay,[7]

deydi shoir. Navoiy baytida aytilgan fikr shu tarzda shoirning aql elagidan o‘tadi, ulug‘ so‘z san’atkori aytgan o‘git bugun ham eskirmagani, yana ham hayotiylik kasb etib, so‘zga, badiiy ijodga e’tiqod, mas’uliyat oshishi zarurligi uqtirilgan.

“Ulug‘lar va kichiklar” she’ri oltinchi maqolotdan keltirilgan “Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak, Ulki kichikroq anga shafqat kerak” baytidan tug‘ilgan taassurot asosida yuzaga kelgan. “Ota va ona” she’rida oltinchi maqolotda Navoiyning ota-ona haqida aytgan, aforizmga aylanib ketgan “Boshni fido ayla ato qoshig‘a, Jismni qil sadqa ano boshig‘a” deb boshlangan ta’rif tabdil etiladi.

“Hayrat ul-abror” dostonining “Avvalg‘i hayrat”ida tong otishi, quyosh chiqishi juda go‘zal, ta’sirchan ifodalangan. “Shom savodi asarin tiyra xok Subh supurgisi bila qildi pok” baytida tongning supurgisi (ufqning asta-sekin yorishib kelishi) qorong‘ilikni chekintirishi haqiqatan ham chiroyli aks ettirilgan. Sirojiddin Sayyid ham bunga munosib hayratini yaxshi ifodalay olgan. Beshinchi na’tda “Yo bu navo zimnida asrab mahal, Cheksa Navoiy so‘zidin bir g‘azal” bayti keltirilgan. Bayt mazmuni sharhida shoir Navoiyga o‘zining buyuk

[6] Саййид Сирожиддин, “Хамса” ҳайратлари, Биринчи ҳайрат(“Ҳайрат ул-аброр”), “SHASRQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2016 й. Б.18

[7] Ўша асар, Б.19.

ehtiromini izhor etadi. Uni bog‘ga qiyoslaydi, o‘zini shu bog‘ning bog‘boni deb biladi, Navoiy mezbon bo‘lsa, uning etagini tutganlar mehmon ekanligini ta’kidlaydi:

Qancha mehmon o‘tdi, lek mezbon o‘shal,

Barcha mehmon ichra biz nodonimiz[8],

deya yetuk ijodkorlarga xos kamtarlik xususiyatini namoyon etgan. Navoiy buyuk ummon ekanligi, “Xazoyin ul-maoniy”dan tilimiz boshlanishi, “Xamsa” porlab turgan besh oftob (quyosh) ekanligidan faxrlanadi. Qo‘rg‘onimiz qanchalik baland bo‘lsa ham, agar Navoiyni bilmasak, e’zozlamasak, shu qadar past bo‘lib qolishimiz aniq. Chunki:

To Navoiy bor – muhabbat dildadir,

So‘lmagay hargiz ko‘ngil bo‘stonimiz.

Shul ismdan yurt aro yuz ming umid,

Shul ismdan nurlanur davronimiz.[9]

Navoiyning ko‘pgina baytlari xalq maqollari, aforizmlarga aylanib ketgan. “Hayrat ul-abror”da ham bunday baytlar juda ko‘p. Ularning har biri kishida cheksiz hayrat uyg‘otadi. Sirojiddin Sayyid ulardan eng xarakterlilari, ayni bugungi kunimiz ruhiga mos keladigan, o‘sib kelayotgan avlod saboq olishi, hamisha yodida tutishi zarur bo‘lgan hikmatlarga kishi diqqatini qaratadi. “Avvalg‘i munojot”da shunday bayt bor:

Bo‘lmadi bas noqis-u komilda farq,

Topmag‘ay el olim-u johilda farq.

Bayt aruzning ramali musaddasi solim vaznida. Sirojiddin Sayyid bu baytning sharhiga bag‘ishlangan g‘azalni ramali musammani maxzufda yaratgan. Baytning mazmuni: nuqsoni bo‘lgan (tarbiyada, xulq-atvorda) kishi bilan yetuk, kamolga yetgandan farqini anglamaslik savodsiz, johil odam bilan olim o‘rtasidagi farqni el ham topolmaydi.

[8] Саййид Сирожиддин, “Хамса” ҳайратлари, Биринчи ҳайрат(“Ҳайрат ул-аброр”), “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2016 й. Б.35

[9] Ўша асар, Б.36.

Sakkiz baytlik g‘azalda Navoiy nimani nazarda tutganligi va undan qanday saboq chiqarish lozimligiga jonli misollar keltiradi. Noqis bilan komilni farqlamaslik bedor bilan g‘ofilni, johil bilan fozilni, telba bilan oqilni farqlamaslikka olib kelganligi talqin etiladi. Shoirning mulohazalari Navoiyning o‘lmas bayti tufayli yaralgani, bayt mazmuni ta’sirchanligini yanada oshirgani mutolaa qiluvchiga ham ta’sir etadi, shoirning hayratlariga qo‘shilib hayratlantiradi.

Xolu zulfing yodidan
jon birla ko‘ngil bo‘ldi sel,
Qolmadi ko‘ngil aro
daryo bilan sohilda farq.

Turfa zorim, bul ajab
holim ko‘rib ahli zamon,
Qolmadi derlar zamonda
telbayu oqilda farq.

“Xamsa” hayratlari” buyuk so‘z san’atkori Alisher Navoiy ijodini ilmiy tadqiq etishdan boshqa – adabiy-badiiy usulda tashviq, targ‘ib etishning bir yo‘lidir. U Sirojiddin Sayyidning Navoiy asarlarini o‘qish va uqish, mutolaa qilish jarayonida orttirgan tajribasi sifatida qimmatlidir. Omon Matjon bir vaqtlar Ogahiyning mashhur “Ustina” radifli g‘azaliga muxammasi muloqot yaratgan edi. “Hayratlar”ni ham Sirojiddin Sayyidning Navoiy “Hayrat ul-abror”i bilan o‘ziga xos muloqoti desak bo‘ladi. Bu muloqot orqali she’rxonda Navoiy asarlariga muhabbat oshadi, bu asarlarni qunt bilan o‘qib, misralar qatidagi ma’nolarni teran anglab yetishga undaydi.

XITOY XALQ RESPUBLIKASIDAN KELTIRILGAN TUT IPAK QURTI ZOTLARINING JONLANISHI

Mambetova Ramuza Paraxatovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti,

Ipakchilik kafedrasi katta o`qituvchisi

Oripov Otabek Oripovich

IITI doktoranti (DSc), q.x.f.f.d.,(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada tut ipak qurtining mahsuldorligini oshirishda xorijiy zotlarning ahamiyati, seleksiya imkoniyatlari, genetik va ekologik moslashuvchanlik omillari tahlil qilinadi. Xorijda sinovdan o‘tgan va yuqori natija ko‘rsatgan zotlarning mahalliy sharoitga moslashtirilgan holatda tut ipakchilik tarmog‘iga joriy qilinishi samaradorligi eksperimental ma’lumotlar bilan asoslanadi. Shuningdek, xorij zotlari asosida olib borilayotgan chatishtirish seleksiyasi metodlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tut ipak qurtlari, mahsuldorlik, xorij zotlari, pilla, ipak hosildorligi, chatishtirish, biologik omillar, eksportbop ipak.

Respublikamiz pilla va tabiiy ipak tayyorlashda jahonda yetakchi o‘rinlardan birini egallab turishiga qaramay, keyingi yillarda ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish sur’atlari talab darajasida emas. Ipak qurti urug‘ini tayyorlash, zot va duragaylarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqarish sharoitida saqlab qolish, ozuqa bazasini mustahkamlash, pilla yetishtirish salmog‘ini ko‘paytirish va uning sifatini yaxshilash jarayonlaridagi ayrim xato va kamchiliklar bunga sabab bo‘lmoqda.

Ishlab chiqarishdagi bunday holatlar mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan ipak qurti zotlarining biologik ko‘rsatkichlari talab darajasida emas, degan fikrlarni paydo bo‘lishiga,

natijada xorijdan ipak qurti urug‘larini import qilib olib kelishga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun har yili xorijdan, asosan Xitoy Xalq Respublikasidan ipak qurti urug‘ini olib kelish va jonlantirib boqish ortib bormoqda. Xorijdan olib kelinayotgan ipak qurti urug‘i miqdori respublikamizda boqilayotgan ipak qurti miqdorini 70-80 foizini tashkil etmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, import qilingan tut ipak qurti duragaylari O‘zbekistonning agroiqlim sharoitida o‘zining ichki imkoniyatlarini yaqqol ko‘rsata olmayapti. Jumladan, ipak qurtini kichik va katta yoshlarda boqish agrotexnikasi, haroratni va namlikni yuqoriligi, pilla o‘rash agrotexnikasining mutlaqo boshqa sharoitlarda o‘tkazilishi ozuqa sifatida berilayotgan tut bargining ta’sirini ko‘rishimiz mumkin.

Natijada har qutidan olinayotgan o‘rtacha pilla xosili 55-57 kg ga teng bo‘lib, tayyorlanayotgan pillalarning navlar aralashmasini miqdori 70-80% atrofida, quruq pilladan ipak chiqish miqdori 32-33% va chuvilayotgan ipakning uzunligi 750-800 metrni tashkil etmoqda. Bu raqamlar pillachilik rivojlangan Xitoy, Yaponiya, Koreya, Tailand, Braziliya, Hindiston kabi pillachilik rivojlangan mamalakatlarda, bir yarim, ikki barobar yuqoridir. Albatta, bunday past ko‘rsatkich ichki va tashqi bozorda ipak mahsulotlarimizni raqobatbardoshligini ta’minlay olmaydi.

Yuqorida qayd qilingan muammolarni ijobiy hal qilishda xorijdan olib kelingan tut ipak qurtlarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, pilla hosildorligi, navdorligi va texnologik xususiyatlarini oshirib, optimal sharoitni izlab topishga e’tibor berish, bu jarayonlarni to‘liq o‘rganish, ularni takomillashtirish va maqbul texnologiyalarni yaratish, olib boriladigan tadqiqotlar asosida isbotlab berish pillachilik sohasida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, respublika pillachiligi va iqtisodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tirik organizmlarning hayot faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy tashqi omillarga oziqlanish, tashqi muhit harorati, atrofdagi havoning namligi, gazlar almashinuvi va boshqalar kiradi. Tut ipak qurtining o‘z tana harorati bo‘lmaganligidan atrofdagi havo harorati uning o‘sishi va rivojlanishi uchun juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ipak qurtining rivojlanishi tashqi muhit bilan chambarchas bog‘langan holda o‘tadi. Ipak qurti tashqi muhitdan, barg, kislorod va quyosh nuri orqali energiyani oladi. Ayni vaqtda

qurt o‘zining tiriklik mahsulotlarini: axlat, suv, uglekislota va issiqlikni tashqi muhitga chiqarib turadi. Qurt organizmidagi fiziologik jarayonlar va uning ahvoli tashqi muhit holatiga bog‘liqdir. Tashqi muhit omillarini ipak qurti zot va duragaylariga ta’sirini, ayniqsa, xorijdan olib kelingan zot va duragaylarda o‘rganmasdan turib, kelgusida qurt boqib pilla yetishtirish va kapalaklardan urug‘ olishning samarali usullarini ishlab chiqish mumkin emas.

Tashqi muhit omillarini ta’siri bilan har bir organizm o‘zgaradi ko‘proq tirik organizmlar bir muhitdan ikkinchi muhitga tushganida bu holat seziladi, ayni vaqtda bu organizm, o‘z atrofidagi muhitni ham o‘zgartiradi. Biologiya fanidagi izlanishlar ana shu o‘zaro munosabatlarni aniq tushunib olish natijasida, organizmlarning tabiatini o‘zgartirish yo‘llarini ochib berdi, ongli va rejalashtirilgan ravishda yangi zotlar va duragaylar yaratish usullarini ko‘rsatdi. Organizm bilan tashqi muhit sharoiti o‘rtasadagi o‘zaro munosabatni qanchalik yaxshi tushunsak, tashqi muhit sharoitlarini tartibga solish va yaratish imkoniyatidan foydalanib, organizmni shunchalik yaxshi idora qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham organizm bilan muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, qishloq xo‘jaligi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, hayvonlarning yaxshi zotlari faqat yaxshi agrotexnika va yaxshi zootexnikani qo‘llash natijasida vujudga keladi.

Tirik mavjudodlar yashash faoliyatiga munosib ravishda, tashqi muhitdan o‘ziga turli sharoitlarni tanlab oladi, ularni assimilyatsiya qiladi hamda o‘zining alohida rivojlanish qonuniyatiga, ya’ni irsiyatiga muvofiq o‘z tanasini tuzadi. Pillachilikni yanada rivojlantirish pilla yetishtiruvchilarni daromadlarini oshiribgina qolmay, balki valyuta tushumini oshiradi, ipak mahsulotlarini olish imkonini yaratadi. Shu bilan birga yetishtirilayotgan pilla hosili nafaqat miqdoriy, balki sifati jihatidan ham hozirgi vaqt davr talablariga javob berishi talab etiladi. Ushbu holatdan kelib chiqib, respublikamizda yetishtirilayotgan pilla hosili sifatini va miqdorini oshirishda xorijdan keltirilgan tut ipak qurti zotlarining O‘zbekiston sharoitida boqishni pilla hosildorligi va navdorligiga ta’siri, ipak qurti tuxumlarining jonlanishi, ipak qurtining hayotchanligi, yetishtiriladigan pillaning biologik, texnologik hususiyatlari, kapalaklarning pushtdorlik ko‘rsatkichlari o‘rganib chiqildi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish davrida, dasturda ko‘rsatilgan vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish maqsadida, sermahsul tut ipak qurti zotlari urug‘i jonlantirildi.

Ipak qurtining “Shantun, Xitoy” duragayidan 3ta variant tuzildi. Har bir variant 3 ta takrorlanishda 200 donadan urug‘ sanab, jami “Shantun, Xitoy” duragayi uchun 600 dona urug‘ olinib, jonlanish foizi aniqlandi. Bu zotga qiyoslovchi qilib respublikamizda tumanlashtirilgan ishlab chiqarishda boqilayotgan ipak qurtining “Ipakchi 1 x Ipakchi 2 ” zotining uchta tuxum quymasi olinib, bitta variant tuzildi, bu variant 3 ta qaytarilishda 200 donadan, jami 600 dona urug‘ taqqoslash uchun inkubatoriyaga jonlanishini taqqoslash uchun qo‘yildi. Xuddi shu tartibda “Shantun, Xitoy” duragayini urug‘lari ham jonlantirishga qo‘yilib, unga qiyoslovchi qilib respublikamizda tumanlashtirilgan ishlab chiqarishda boqilayotgan “Ipakchi 1 x Ipakchi 2” ipak qurti zoti olindi.

Inkubatoriyaga ipak qurti urug‘i tadqiqotni olib borish usulida ko‘rsatilgan oq pilla o‘rovchi ipak qurtlari uchun ishlab chiqarilgan usuldagi agrotexnik me’yorida, xona harorati 240C, namlik 70% da ushlab, jonlantirildi. Xonadagi harorat, namlik va tashqaridagi ob-havoning holati kundalik daftarga qayd qilib borildi. Ipak qurtlarini jonlantirish vaqtida kunlik navbatchilik guruhi tuzilib, kechayu-kunduzgi harorat va inkubatoriyadagi shart-sharoitlar sun’iy boshqarib borildi. Xonani ertalab, kunning o‘rtasida va kechqurunlari deraza va eshiklar ochilib, shamollatib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Н.А. Ипак қурти уруғини жонлантириш. // Тошкент, 1992. Б. 6-7.

2. Ахмедов Н.А, Беккамов Ч. Тут ипак қурти маҳсулдорлик белгиларини намоён бўлишида озуқа миқдорини аҳамияти. // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. – Тошкент. 2002. -№3.- Б. 116-117.

3. Ахмедов Н.А, Муродов С.А Ипакчилик асослари. // Тошкент. 1998. Б. 113-117.

4. Ахмедов Н.А, Муродов С.А. Ипак қурти экологияси ва боқиш агротехникаси. // Тошкент. 2004. Б. 14-21.

5. Умаров Ш.Р. Ёз-куз мавсумларида қуртларни янги технология бўйича парваришлашнинг пилла наслдорлик хусусиятларига таъсири. // Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2008. Б.32-34.

ЧИРЧИҚ ШАҲРИДА УРБАНИЗАЦИЯНИНГ ГЕОГРАФИК ВА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАРИ

Умаров Санжар Зокир ўғли
Тошкент архитектура-қурилиш университети (PhD) мустақил изланувчиси

Аннотация: Чирчиқ шаҳри Ўзбекистоннинг Тошкент вилоятида жойлашган ва ўзининг географик ва ижтимоий-иқтисодий аҳамиятига кўра муҳим аҳамиятга эга. Мақола Чирчиқ шаҳридаги урбанизация жараёнларини, шунингдек, урбанизациянинг географик ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларини таҳлил қилади. Тадқиқотда урбанизациянинг аҳоли сонининг ошиши, кўчиш жараёнлари, транспорт ва инфратузилмани ривожлантириш, иқтисодий фаолликнинг ўсиши каби омиллар ёритилади. Мақолада урбанизациянинг ижтимоий тараққиётга, масалан, таълим, тиббиёт ва ижтимоий хизматлар соҳасидаги ўзгаришларга бўлган таъсири ҳам кўриб чиқилади. Мақолада келтирилган натижалар, урбанизация жараёнларининг Чирчиқ шаҳрининг барқарор ривожланишини таъминлашдаги аҳамиятини кўрсатиб, шунингдек, турли ижтимоий ва экологик муаммоларга ечим таклиф қилади.

Калит сўзлар: урбанизация, географик ўзгаришлар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, Чирчиқ, Инфратузилма, экологик муаммолар

Кириш: Чирчиқ шаҳри — Ўзбекистоннинг Тошкент вилоятидаги аҳолиси 100 000 дан ортиқ бўлган шаҳарлардан бири. Шунингдек, у Тошкент шаҳри билан чамбарчас боғланган шаҳарлар тўпламида муҳим аҳамиятга эга. Урбанизация жараёни бу шаҳарда кузатилмоқда, бу ўзгаришлар аҳоли таркиби, турмуш тарзи, ижтимоий-иқтисодий муҳит ва географик ҳолатга ўз таъсирини ўтказмоқда. Урбанизациянинг географик ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлари, хусусан, аҳоли миграциясининг ҳиссаси ва шаҳарлашишнинг иқтисодий кўрсаткичларига бўлган таъсирига алоҳида эътибор қаратилади. Мақолада урбанизациянинг ривожланиш динамикаси ва бунинг ижтимоий ва иқтисодий натижалари таҳлил қилинади.

Адабиётлар таҳлили

Чирчиқ шаҳрида урбанизация жараёнига оид илмий тадқиқотлар ва адабиётларнинг таҳлили урбанизациянинг географик ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Бир қатор тадқиқотчилар урбанизациянинг иқтисодий ўсишга, аҳоли жойлашуви ва шаҳар атрофидаги хўжалик фаолиятига таъсирини таъкидлайдилар. Масалан, Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари 1990-йиллардан бошлаб кучайиб, аҳоли ва ижтимоий инфратузилманинг ривожи билан боғлиқ бўлган кўплаб тадқиқотлар қилинган. Тадқиқотчилар урбанизациянинг экосистема, сув ресурслари ва экологик муаммоларга бўлган таъсирини ҳам кўриб чиқишган. Бу адабиётларнинг асосида, Чирчиқ шаҳрида урбанизациянинг таъсирини аниқлаш ва ёрдамчи тадқиқотлар олиб бориш мумкин.

Таҳлил ва Натижалар

Чирчиқ шаҳрида урбанизация жараёни қуйидаги асосий географик ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларга олиб келган:

Урбанизациянинг ривожи Чирчиқ шаҳрининг географик тузилишига ўзгаришлар киритган. Шаҳарнинг жойлашуви, транспорт инфратузилмаси ва аҳоли жойлашуви соғлом тартибда ривожланган. Шаҳар атрофидаги ерлар тез-тез урбанизация қилинмоқда, бу аҳоли сифатини яхшилашга ёрдам бермоқда.

Урбанизация жараёнининг ижтимоий тажрибалари ошган, хусусан, таълим, тиббиёт ва ижтимоий хизматлар соҳасидаги ривожланишлар кўрсатиб ўтилган. Иш ўринлари яратиш ва аҳоли ҳаётини яхшилаш учун янги инвестициялар киритилди. Экономикада саноат ва хизмат кўрсатиш секторлари тез ривожланди.

Урбанизациянинг ижтимоий ва экологик таъсирлари ҳам кузатилмоқда. Суғориш ва атроф-муҳитнинг бузилиши, сув манбалари ва чиркинлашган муҳит муаммолари ривожланмоқда.

Хулоса

Чирчиқ шаҳрида урбанизациянинг географик ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлари аҳоли турмуш даражасини яхшилаш ва иқтисодий ўсишга катта таъсир кўрсатди. Бундан ташқари, шаҳарларнинг урбанизацияланиши ва ривожи экологик муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Шунингдек, урбанизация жамиятни барқарор ривожлантириш учун муҳим бўлиб, унинг ижтимоий ва иқтисодий оқибатлари аниқланиши лозим. Мақолада Чирчиқ шаҳрини ривожлантириш ва урбанизацияни мувозанатли тарзда амалга ошириш учун бир қатор таклифлар келтирилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллаев, Н. (2021). Урбанизация ва экологик муаммолар: Ўзбекистоннинг урбанизация тажрибаси. Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти.
2. Исматова, Р. (2019). Урбанизация ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш. Тошкент: Ўзбекистон миллий университети.
3. Юсупова, М. (2020). Транспорт инфратузилмаси ва урбанизация. Тошкент: Тошкент давлат транспорт университети.
4. Тўймасов, И. (2018). Урбанизация ва аҳоли миграцияси: Ўзбекистон мисоли. Тошкент: Ўзбекистон географик жамияти.

ҚАЗАҚ ХАЛЫҚ ЖОҚЛАЎЛАРЫНЫҢ ӨЗИНЕ ТӘН ӨЗГЕШЕЛИГИ

А.У.Бекбергенова

ӨЗР ИА ҚҚБ Қарақалпақ гуманитар илимлер илим-изертлеў институты

Қазақ халқының аўыз еки әдебияты салт дәстүрлеринен әҳмийетли орын алатуғын жоқлаў қосықларын үйренип қарағанымызда кең көлеми менен халықтан халыққа жетип келиўи менен де, сақланып ҳәм раўажланыўында да өзине тән өзгешеликке ийе екенлиги менен белгиленеди. Буның айқын дәлийли бул халықларда алдыңғы ҳәм кейинги жыллары авторлық жоқлаўларда орын алған. Илимпаз Т.Арынов: Қазақ халқының жоқлаўларын «биринши қайтыс болған адамның ул-қызлары шығарған жоқлаўлар, екинши анасы шығарған жоқлаўлар, үшиншиси ақын, жыраўлар шығарған жоқлаўлар»[1], - деп үш түрге бөлип қарайды. Усы үшинши түрине байланыслы Бухардың Абылай ханды жоқлаўында:

«Абылай, асқар таўым қайдасың»,

Алаштың айбыны, еңсели қайдасың,

Алтын аўыз ақ орда, алтын тақ,

Айрылдық ханнан қайдасың?

Туғырыңнан талпынып ушқан суңқарым,

Тарылып - ишиң қайдасың?

Ал, Үмбетей жыраўдың жоқлаўында бул тулға ҳаққында мынадай қатарларды ушыратамыз:

Абылай атыңнан айналайын,

Алашың қалды хан саған,

Басыңды таўға соқсаңда,

Айрылған ханың оралмас[2].

Бул еки жоқлаўлардағы сыпатламар арқалы Абылай ханның батырлығы, ел-халқының оған деген ҳүрмети, ел ағасынан айрылғандағы өкинишлери, оған деген өзгеше сүйиспеншилиги белгилеп берилген. Ал, Алтынхан Төленхан қызының әкесин жоқлаўында мынадай етип бериледи.

Алдымда асқар бел еди-ау,

Мейириң шалқар көл еди-аў,

Асқар тау қулап жер болды-аў,

Шалқар көлим шөл болды-аў,

Иши гәўҳар, сырты алтын,

Қулады – аў сая терегим,

Жыласам суўдай агаман,

Излесем қайдан табаман[3, 77].

Усы мазмундағы қатарларды Қаз даўыслы Қазыбек бийдиң қызы Қамқаның жоқлаўында көриўимизге болады.

Кешеги жүрген әкекем,

Жоқтаўсыз тастар ерме еди?

Төрт тиреўдиң бири едик,

Қыйын қыстаў ис келсе,

Бәринен де ири едик,

Енди халық не болар?

Асқар таўы қулаған,

Орынсыз жерге қан төгип,

Қас қылған емес бир жанға,

Басын ийип қул болып,

Бағынған емес бир жанға,

Халқыңа арнап жол салдың,

Қолайлы қылып ҳәр заңға,

Жесир қатын, жетим ул,

Әрўағыңа таянып,

Ийе болды мал жанға[3, 212].

Қазақ халқы жоқлаўлары жоқарыда айтып өткенимиздей өриси кеңлиги менен өзгешеленеди. Мысалы: «Бабалар сөзи» деп аталатуғын жүз томлығының муң-шер қосықлары деп берилген 91- томында жоқлаўлардың «Әкени жоқлаў» деген бөлиминде әкени жоқлаўға арналған муң қосықлары былай баянланған.

Жүк ортасын ояйын,

Жүк аяқты қояйын,

Иманды болғыр әкежан,

Жыламай қәйтип қояйын,

Таў басында кекилик,

Кекилик отыр бекинип,

Жыламайын десемде,

Басыма түсти жетимлик [3, 53].

«Күйеуин жоқлаў» ға байланыслы қосықлар мына мазмунда берилгенлигин көремиз. Мысалы:

Ораўышым оңбады,

Отызға жасың толмады,

Жети жыл жолдас болғаным,

Жети күндей болмады,

Омыраў толы ақ моншақ,

Әкели бала мақтаншақ,

Әкеси жоқ жалғызың,

Болады енди жасқаншақ[3, 100]

Жоқарыдағы мысаллардағы жоқлаўлардың барлығы муңлы, қайғыны билдирип ең жақын адамлары бул дуньядан өткенде оларды еслеп, ҳүрмет иззет пенен айтылғаны нәзерде тутылады. Әкесине айтылған жоқлаўларда хан атасын улығлаўы менен бирге ел басына түскен аўыр мүсибетти де, тек бир ханның қызы емес, пүткил халықтың басына түскен жетимликти көриўимизге болады. Бул қосық қатарларында өлген ханның ҳәм бийдиң әдиллиги, айбаты, ел тәғдири ушын алып барған қалыс ислери де баянланған. Әке перзент ушын ҳәмме ўақыт асқар таў сыяқлы күшли сүйениш екени айқын ашып берилген. Ал, «Күйеўин жоқлаў»ға байланыслы қосық қатарларының өзине тән әҳмийети оғада үлкен себеби, тек өмирлик жолдас сыпатында емес, тири ўақтында балаларының келешеги, сүйениши, мақтанышы екенлигиде тәсирли баянланады. Сондай-ақ, топламдағы жоқлаўлар «Ҳәр түрли жоқлаўлар», «Ананың баланы жоқлаўы», «Туўысқанды жоқлаў», «Ел тулғаларын жоқлаў» деп бөлимлерге бөлинген. Соның менен бирге, қазақ фольклортаныўы илиминде жоқлаў жанры бойынша М.Әўезов[4], А.Байтурсынов[5], Ә.Қоңыратбаев[6], Ә.Марғулан[7], Б.Уахатов[8], Д.Медерова[9], Б.Қорғанбеков[10]лардың, илимий изертлеўлеринде илимий анализлерди ҳәм бирқанша салмақлы пикирлерди ушыратамыз.

Жуўмақлап айтқанда, қазақ халық аўыз еки әдебиятындағы жоқлаўлар өзиниң бай идея-тематикасы, мазмунлылығы, тәрбиялық әҳмийетке ийе екенлиги менен өзгешеленеди.

Әдебиятлар:

1.Арынов Т. «Боздағым» Қазақтың жоқтау жырлары. –Алматы. Жазушы, 1990. – Б. 5-11.

2.https://share.google/ff6b1Gs850x3oM83I

3. Бабалар сөзи. Көп томлық. 91-том. Астана. Фолиант, 2013. – Б. 413.

4.Әуезов М. Шығармаларының елиў томдық толық жыйнағы. IV том.

– Алматы, 2001. 4-том, – Б. 22.

5. Байтурсынов А. Шығармалары. – Алматы, 1989. – Б. 236-238.

6. Қоңыратбаев Ә. Қазақ фольклорының тарихы. – Алматы. Ана тили, 1991. – Б. 3-40.

7. Марғулан Ә. Ежелги жыр аңыздар. – Алматы. Жазушы, 1985. – Б. 28.

8. Уахатов Б. Қазақтың турмыс-салт жырларының типологиясы. – Алматы. Ғылым, 1983. – Б. 134.

9. Медерова Д. Құлпы тас бетиндеги жоқтау сарыны. Батыс Қазақстан облысы материалдары бойынша. КазҰУ Хабаршысы. № 3(7). 2016. – Б. 37-43.

10. Қорғанбеков Б. Қожа Ахмет Ясауи ҳікметтері және қазақ фольклорындағы жоқтау жанры. Түркология. № 4, 2011. – Б. 53-59.

MUNDARIJA

1	SUN’IY INTELLEKT VA FINTECH ASOSIDA BUDJET TASHKILOTLARI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	Ibragimova Iroda Rashid kizi Samatova Shoxida Umar qizi	**4**
2	ОСОБЕННОСТИ ЗАИКАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	Жуманазарова Азизахон	9
3	ZAMONAVIY INTERAKTIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI OG'ZAKI VA YOZMA HISOBLASHGA O'RGATISH USULLARI	O.Ch.Kuziyev Sh.A.Namozova	12
4	KOMPANIYA FAOLIYATINING MOLIYAVIY TAHLILI USULLARI VA MODELLARI	Muxammadova Shahnoza Akramovna	16
5	INNOVATSION TA'LIMDA MA'NAVIY TARBIYANING O'RNI.	Karimova Feruzaxon Zakirovna	19
6	MAMLAKAT IQTISODIY O‘SISHIDA EKSPORT SALOHIYATINING ROLI VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	23
7	TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARI: SIYOSIY JARAYONLAR TAHLILI	B.M.Azimov	27
8	ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ УЛЬТРАЗВУКОВОГО И МОРФОМЕТРИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА У ПАЦИЕНТОВ С НИЗКИМ УРОВНЕМ СЕНСИБИЛИЗАЦИИ ПОСЛЕ ТРАНСПЛАНТАЦИИ ПОЧКИ	Курбанов Обид Махсудович, Норкузиев Шерали Сафаралиевич, Муминов Жавохир Аслиддинович	30
9	ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ И ЛАБОРАТОРНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАК ПРОГНОСТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ДИСФУНКЦИИ ПОЧЕЧНОГО ТРАНСПЛАНТАТА У ВЫСОКОСЕНСИБИЛИЗИРОВАННЫХ РЕЦИПИЕНТОВ	Курбанов Обид Махсудович1, Норкузиев Шерали Сафаралиевич2, Муминов Жавохир Аслиддинович2	32

10	ОПТИМИЗАЦИЯ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ТАКТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ УРЕТЕРОЦИСТОАНАСТОМОЗА ПРИ РОДСТВЕННОЙ ТРАНСПЛАНТАЦИИ ПОЧКИ	Муминов Жавохир Аслиддинович	34
11	TRANSPORT VA TURIZM OBYEKTLARIDA SODIR ETILGAN O‘G‘IRLIK JINOYATINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI	Turg`unov Ahror Ravshan o`g`li	35
12	ALISHER NAVOIY IJODINING ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI	Ra’no Payzullayeva	40
13	XITOY XALQ RESPUBLIKASIDAN KELTIRILGAN TUT IPAK QURTI ZOTLARINING JONLANISHI	Mambetova Ramuza Paraxatovna Oripov Otabek Oripovich	45
14	ЧИРЧИҚ ШАҲРИДА УРБАНИЗАЦИЯНИНГ ГЕОГРАФИК ВА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАРИ	Умаров Санжар Зокир ўғли	50
15	ҚАЗАҚ ХАЛЫҚ ЖОҚЛАЎЛАРЫНЫҢ ӨЗИНЕ ТӘН ӨЗГЕШЕЛИГИ	А.У.Бекбергенова	53